

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 8-1/9

AZIMOVA O'G'ILOY AXMADJON QIZINING

**“NOMA JANRINING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDAGI
O'RNI” mavzusidagi**

**5A220101 – Adabiyotshunoslik mutaxassisligi bo'yicha magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: H.Jo'rayev,
filologiya fanlari doktori

Farg'ona - 2017

Magistrlik dissertatsiyasi kafedraning 2017-yil
..... -yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

G.Muhammadjonova,
filologiya fanlari nomzodi

Rasmiy taqrizchi:

F.Karimova,
filologiya fanlari doktori

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Farg‘ona davlat universiteti

Fakultet: Filologiya. Magistrant: O'.A.Azimova
Kafedra: O‘zbek tili va adabiyoti. Ilmiy rahbar: H.A.Jo‘rayev,
filologiya fanlari doktori.

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyotimizning yorqin namoyandalari qalamiga mansub mazkur asarlarning pafosi, kompozitsion xususiyatlari, zamonaviylik jihatlari va ilmiy-nazariy umumlashmalar, xulosalarni ilmiy tekshirish ulug‘ ajdodlarimiz ijodiy merosini tadqiq etish bo‘yicha erishilgan muvaffaqiyatlarni yanada boyitadi. Shu bilan birga, mazkur asarlarda falsafiy fikr-mulohazalar bilan birga badiiy talqinning sinkretik tarzda kelishi ularni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tekshirishni ham taqozo etadi. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning maqsadi. O‘tmishni bilish, undagi ibratomuz voqealar, mashhur tarixiy shaxslar hayotini tadqiq etish, adabiyotimizda paydo bo‘lgan janrlarning xususiyatlarini chuqur o‘rganish bugunning talabi, millat ravnaqining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Nisbatan kam o‘rganilgan asarlar sirasiga kiruvchi nomalar, ularning janr xususiyatlari, mavzular ko‘lami, g‘oyaviy-falsafiy jihatlari, yuzaga kelish sabablari hamda poetik xususiyatlarini o‘rganish tadqiqotning maqsadi bo‘lib, ulug‘ ajdodlarimizning o‘z zamonasi nomanavisligiga munosabatini, o‘zining falsafiy-g‘oyaviy maqsadlarini badiiy talqin etishini ko‘rsatish, badiiy vosita va usullarga murojaatini ilmiy tadqiq etishdir.

Tadqiqotning vazifalari qilib quyidagilarni oldik:

- Noma janrining paydo bo‘lishi va shakllanishi, janrga xos xususiyatlariga oydinlik kiritish;

- Sharq adabiyotida nomanavislik an'analari va ularga munosabatni belgilash;
- mumtoz adabiyot tarixida nomanavislikning yetakchi xususiyatlarini va badiiy ijod bilan aloqador jihatlarini yoritish;
- Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari asosida nomaning badiiy-estetik, g'oyaviy-falsafiy jihatlarini ko'rsatish;
- mavzular talqini va poetik ifoda muammolarini tadqiq etish;
- nomaga oid asarlarning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o'rni va ahamiyatini asoslash.

Tadqiqot ob'yekti qilib o'zbek adabiyotida nomanavislik doirasida bir necha asarlar yaratgan bo'lib, ilmiy izlanishlarimiz ob'ekti sifatida "Muhabbatnoma", qisman "Taashshuqnoma", shuningdek, "Latofatnoma" asarlari tanlandi. Shuningdek, o'rni bilan boshqa adabiy, ilmiy-filologik, xotira asarlarga ham murojaat qilindi.

Amaliy va nazariy ahamiyati. Mazkur dissertatsiya istiqlool sharoitida adabiy-madaniy merosga yangicha va xolis yondashuv ifodasi sifatida barkamol avlodni tarbiyalash ishlarida ham ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-estetik jihatdan foydalidir.

Chop etilishi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni respublika ilmiy jurnallarida va ilmiy to'plamlarda e'lon qilingan maqolalarda o'z aksini to'gan.

Dissertatsiyaning tuzilishi Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi sahifani tashkil etadi.

Ilmiy rahbar: _____ H.Jo'rayev

Magistratura magistranti: _____ O'.A.Azimova

M U N D A R I J A

KIRISH.....	6
 I BOB. NOMA VA UNING TARIXI	
1-fasl. Nomaning janr sifatida shakllanish jarayoni.....	15
2-fasl. Nomalarning badiiy asar tarkibidagi o'rne.....	28
 II BOB. TADRIJIYLIK VA BADIYYAT	
1-fasl. Ijtimoiy-falsafiy va g'oyaviy jihatlar.....	35
2-fasl. Badiiy-estetik xususiyatlar.....	45
 III BOB. TARIXIY DAVR, MADANIY HAYOT	
1-fasl. "Muhabbatnoma"ning yaratilish davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot va adabiy muhit.....	54
2-fasl. Nomachilikda an'ana va novatorlik masalalari.....	64
 XULOSA.....	 74
 SLAYD-ILOVALAR.....	 78
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	 84

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Milliy istiqlol sharofati tufayli xalqimizning asriy ma'naviy qadriyatlarini tiklash, uzoq va yaqin tarixdagi madaniy-adabiy merosni mustaqillik mafkurasi asosida xolis o'rganishga ham katta ahamiyat berilmoqda.

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari jahon adabiyotining ham eng yetuk, eng sara asarlari sirasidan joy olgan. Dunyo estetik tafakkuri taraqqiyotiga o'z ijodlari bilan ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz asrlar davomida bashariyatga ma'rifiy yuksalish, ma'naviy tozarish borasida ham saboq berib kelmoqda. Ana shu nodir adabiy merosni eng avvalo xalqimiz orasida targ'ib etish, ular zamiridagi badiiy yuksaklik, g'oyaviy teranlikni kishilar tushunchasiga yetkazish yo'riqlarini ishlab chiqish, takomillashtirish har doim ham muhim vazifalardan bo'lib kelgan. Jamiyat a'zolari ongida milliy mafkura hamda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga da'vat etilgan ta'lim muassasalarining faoliyati bu borada alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yosh avlodni ma'nan yuksak insonlar qilib tarbiyalash davlat miqyosidagi muhim vazifa darajasiga ko'tarildi. Chunki ma'naviyati boy kishilar yashaydigan mamlakat iqtisodiy, siyosiy jihatdan taraqqiy topadi, jamiyatning esa kuchli bo'lishi muqarrardir. Targ'ibot-tashviqot, ta'lim-tarbiyaga daxldor shaxslar, idoralarning o'z faoliyatlarida jonkuyar, tashabbuskor hamda ijodkor bo'lishlari bu boradagi ishlarning samarasini ta'minlaydigan yetakchi omillardan sanaladi.

Har bir xalq ma'naviyatida milliy merosga, xususan, milliy adabiyotning sara namunalariga tayangan holda yosh avlodni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga qadimdan alohida e'tibor berib kelingan. Bu borada musulmon Sharqi madaniyati va adabiyotshunosligi o'ziga xos tajriba hamda an'analarga ega bo'lgan ulkan manbadir.

Yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan olim hamda adiblardan Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Alisher Navoiy, Atoulloh Husayniy, Shayx Ahmad Toroziy, Zahiriddin

Muhammad Bobur, Zokirjon Furqat va boshqa allomalarning ijodiy meroslarida ma'naviy barkamol inson tarbiyasiga, xususan, yoshlarni so'z vositasida toza ko'ngil, ezgu o'y, yuksak axloq kishisi qilib ulg'aytirish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Ulug' ajdodlarimiz adabiy merosi, xususan, noma janrida yaratilgan asarlar o'z davri uchun noyob adabiy manba bo'libgina qolmasdan, har bir muallifning adabiy-estetik salohiyati, ma'naviy-axloqiy qarashlarining ham yorqin ifodasidir. Noma janrining manbalari, shakllanish jarayoni, XV asrdagi taraqqiyoti masalalari adabiyotshunos M. Jamolova tomonidan tekshirilib, tadqiqot natijalari monografiya sifatida chop etilgan. Ammo o'z davri adabiy-madaniy hamda ijtimoiy hayotining o'ziga xos ko'zgusi bo'lgan nomalarning janr xususiyatlari hozirgacha maxsus ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.¹ Vaholanki, bunday asarlardagi boy adabiy materiallar, lirik kechinmalarning badiiy ifodasi o'rta asrlar ijtimoiy-siyosiy voqeligi hamda falsafiy tafakkurining asosiy xususiyatlarini yoritishda birlamchi va ishonchli manba bo'la oladi. Qolaversa, mumtoz adabiyotimiz tarixiga oid har bir adabiy hodisani atroflicha bilish, ajdodlarimizning shaxs va jamiyat munosabatlari bo'yicha to'plagan boy tajribalarni o'zlashtirish, ulardagi ibratli ijtimoiy-axloqiy o'gitlarni hayotimizga tatbiq qilish uchun, bugunimizni teran anglab, kelajagimiz sari sobit va dadil qadam tashlashimiz uchun ham muhimdir. Ayniqsa, nomaning janr talablari haqida mushohada yuritish, alohida xususiyatlarini asoslash fursati keldi. Bunday dolzarb vazifalarni bajarish badiiy adabiyot tadqiqotchilarining zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Shu ma'noda noma janrida yaratilgan asarlarni istiqloq sharoitida, bugungi ijtimoiy va adabiy-nazariy tafakkur darajasidan turib, adabiy hodisa va janr mezonlari, tarixiy haqiqat va badiiy talqin, tarixiylik va zamonaviylik kabi masalalar nuqtai nazaridan tadqiq etish adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardandir. Shu bilan birga, mazkur asarlarda shoirlarning poetik ifoda salohiyati, falsafiy-estetik qarashlari, axloqiy-ta'limiy o'gitlari ham keng qamrovli aks etgan. Adabiyotimizning yorqin namoyandalari qalamiga

¹ Jamolova M. O'zbek adabiyotida noma janri. T.: "Fan" nashriyoti. 1992

mansub mazkur asarlarning pafosi, kompozitsion xususiyatlari, zamonaviylik jihatlari va ilmiy-nazariy umumlashmalar, xulosalarni ilmiy tekshirish ulug' ajdodlarimiz ijodiy merosini tadqiq etish bo'yicha erishilgan muvaffaqiyatlarni yanada boyitadi. Shu bilan birga, mazkur asarlarda falsafiy fikr-mulohazalar bilan birga badiiy talqinning sinkretik tarzda kelishi ularni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tekshirishni ham taqozo etadi. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan ko'plab janrlar bilan tanishamiz. Xalq og'zaki ijodiyotiga mansub qo'shiqlardan tortib, qissa va dostonlar, g'azal va ruboiylar, tuyuq va qit'alar shular jumlasidandir. O'zbek adabiyotining ana shu xilma-xil janrlari o'rtasida **noma** ham o'z tarixi, taraqqiyot yo'li va adabiyot tarixida munosib o'rniga egadir.

Sharq adabiyoti tarixida "Shohnoma", "Qobusnoma", "Iskandarnoma", "Boburnoma", "Shayboniynoma", "Sayohatnoma" kabi asarlarni yaxshi bilamiz. "Noma" atamasi bilan qo'shilib kelgan bu asarlar bir holatda biror tarixiy yoki afsonaviy shaxsning sarguzashtlaridan iborat bo'lsa, ikkinchi bir o'rinda ibratli hikoyatlardan tashkil topadi. "Sayohatnoma"larning mundarijasi esa uning atamasidan ham anglashilib turadi. Sharq adabiyoti, jumladan, o'zbek adabiyoti tarixida noma atamasi bilan keladigan asarlarning yana bir turi mavjud. Masalan, "Muhabbatnoma" yoki "Dahnoma" kabi. Bu asarlar muhabbat mavzuidagi lirik nomalardan iborat alohida janrni tashkil etadi.

Sevishganlar o'rtasidagi she'riy maktublardan tarkib topgan bunday asarlarning ildizlari o'zbek adabiyotida uzoq asrlarga borib taqaladi. Umuman olganda, noma atama sifatida dastlabki paytlarda og'zaki ijodiyotda maktub, xat tarzida ishlatilgan. Yozma adabiyot namoyandalari esa, masalan, Alisher Navoiy "insho" (ko'plikda munshaot), Zahiriddin Muhammad Bobur "kitobat" tarzida qo'llaydilar.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida har turli harakatlarda qo'llanuvchi af'al (fe'llar) shaklidagi so'zlar bo'limida xabar

yetkazuvchi soʻzini izohlaganda “Bu soʻz maktub, noma maʼnosida ham qoʻllanadi”² deyilgan. Xuddi shu asarda keltirilgan bir sheʼriy toʻrtlikda esa lirik qahramon Turkon xotun degan ayolga sheʼriy noma yoʻllab, uning har bir xizmatiga tayyor ekanligi xabarini yuboradi.

Noma atamasi qadimiy xalq dostonlarida ham uchraydi. Bunday dostonlardan biri “Alpomish” boʻlib, unda ona yurtidan uzoqda boʻlgan Barchin oʻzining nochor ahvolda qolganligini bayon etib, sevgilisi Hakimbek kelib qutqarishini iltijo etib maktub-noma yozgani va bu nomani oʻnta navkardan yuborgani bayon etilgan.³

Oʻzbek nomachiligining eng taraqqiy etgan davri XIV – XV asrlarga toʻgʻri keladi. Bu davrda Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xoʻjandiyning “Latofatnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” va Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” kabi asarlari yuzaga keldi. Bu asarlarning muqoyasali tahlili oʻzbek nomachiligining tarixi, shakllanish jarayoni, oʻziga xos janr xususiyatlari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Noma janri boʻyicha tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunoslar mazkur asarga u yoki bu darajada munosabat bildirgan boʻlsalar-da, uning poetik xususiyatlari, badiiy jihatlariga alohida urgʻu bermaganlar. Shu kungacha Nomalarning gʻoyaviy-falsafiy talqin tamoyillari hamda poetik xususiyatlarini alohida oʻrganish maqsadi qoʻyilmagan.

Noma janrida yaratilgan asarlarni tadqiq etish jarayonida uning badiiyati, gʻoyaviy-falsafiy xususiyatlarini toʻgʻri baholay bilish uchun tarixiy shaxs va romantik obrazlar davri, shuningdek, hayotiy voqelikni nisbatan haqqoniy tasvirlangan davr singari bosqichlarda oʻrganish maqsadga muvofiq boʻladi. Ayniqsa, muallifning har bir nomadan soʻng oʻziga xos qissadan hissa chiqarishi, yaʼni nasr va nazmning sinkretik uygʻunlikda kelishi, bundan koʻzda tutilgan maqsad masalalarini ilmiy tekshirish ham yangicha ilmiy-nazariy xulosalar

² Кошғарий М. Девону луғотит турк. 1-том. Т.: 1960. 17-бет.

³ Алпомиш. Т.: 1987. 57-бет.

chiqarishga turtki beradi. Shu tarzda noma janrida yaratilgan asarlarga adabiy-badiiy manba sifatida yondashishga asos yaratiladi.

Noma bo'yicha tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunoslar mazkur tipdagi asarlarga u yoki bu darajada munosabat bildirgan bo'lsalar-da,⁴ uning janr xususiyatlari, badiiy jihatlariga alohida urg'u bermaganlar. Shuningdek, nomalarning mazmuniga ko'ra alohida nomlashga ham moyillik ko'zga tashlanadi.⁵ Lekin shu kungacha nomalardagi mazmun va poetik fikr uyg'unligi, badiiy tasvir vositalarining ijodkor tafakkurini aks ettirishdagi o'rni, xususan, "Muhabbatnoma", "Taashshuqnoma", "Latofatnoma" singari asarlarning badiiy talqin tamoyillari hamda poetik xususiyatlari, asardagi voqea-hodisalar bilan shoir yashagan davr voqeligining hamohang jihatlarini alohida o'rganish maqsadi qo'yilmagan.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya mavzusi Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida ilmiy tadqiqot rejasidagi poetika muammolarini o'rganish mavzulari doirasiga kiradi. Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining poetika muammolari yo'nalishidagi tadqiqot rejalari asosida bajarildi va mavzu FarDU ilmiy kengashida mahqullanib, tasdiqlangan.

Tadqiqotning maqsadi. Madaniyat va ma'naviyatimiz tarixida XV asr va XVI asrning birinchi yarmi beqiyos sermahsulligi, shu davrda xalqimiz ko'plab ilm va adabiyot daholarini insoniyatga tortiq etganligi alohida e'tiborga loyiq. Bu davrda Xuroson va Movarounnahrda Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy rahnamoligida yuzlab shoiru adiblar, tarixchi va bastakorlar, san'at ahli barakali ijod qildi. Fors va turkiy tillarda yaratilgan durdona asarlardan ham forsiyzabon, ham turkiy tilda so'zlashuvchi kitobxonlar bir xilda ma'naviy oziq oldilar. Har ikki tilda ijod qilingan badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar bir-birini to'ldirgan va boyitgan.

Ijtimoiy turmushning bugungi va ertangi hayoti qay yo'ldan bormog'i lozimligini aniqlash va rejalashtirish uchun kechagi kunga, aniqrog'i o'tmishga

⁴ Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. Т.: "Фан". 1992

⁵ Жўрабойев О. Мумтоз адабиётда муғаннийнома. Т.: "Тамаддун" нашриёти. 2016

nazar tashlash har qanday fan mutaxassisleri uchun sinalgan haqiqatdir. Shunga ko'ra tarixiy, adabiy va madaniy merosimizning o'rganilmagan yoki nisbatan kam varaqlangan sahifalariga zehn solish, ularni Istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan xolis ilmiy tadqiq etish, ulardan ibrat saboqlarini o'rganish – bugunning qadriga yetish va kelajakning izchil taraqqiyot yo'nalishini aniqlash uchun dasturilamal bo'lishi turgan gap.

Istiqlol sharofati ila boy adabiy-ma'naviy merosimizni qanday bor bo'lsa shu holicha o'rganish, ilmiy jihatdan xolis tahlil etish va xalqqa taqdim etish imkoniyati yanada kengaydi. Bugungi kunda ko'p asrlik ijtimoiy tafakkurimiz hamda adabiyotimiz tarixining mutlaqo o'rganilmagan yoki yaxshi ochib berilmagan qirralarini yosh avlodga ko'rsatib berish, biryoqlama talqin qilingan jihatlarini yangicha va xolislik bilan nazardan o'tkazish davr talabiga aylandi.

O'tmishni bilish, undagi ibratomuz voqealar, mashhur tarixiy shaxslar hayotini tadqiq etish, adabiyotimizda paydo bo'lgan janrlarning xususiyatlarini chuqur o'rganish bugunning talabi, millat ravnaqining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Nisbatan kam o'rganilgan asarlar sirasiga kiruvchi nomalar, ularning janr xususiyatlari, mavzular ko'lami, g'oyaviy-falsafiy jihatlarini, yuzaga kelish sabablari hamda poetik xususiyatlarini o'rganish tadqiqotning maqsadi bo'lib, ulug' ajdodlarimizning o'z zamonasi nomanavisligiga munosabatini, o'zining falsafiy-g'oyaviy maqsadlarini badiiy talqin etishini ko'rsatish, badiiy vosita va usullarga murojaatini ilmiy tadqiq etishdir.

Tadqiqotning vazifalari.

- Noma janrining paydo bo'lishi va shakllanishi, janrga xos xususiyatlariga oydinlik kiritish;
- Sharq adabiyotida nomanavislik an'analari va ularga munosabatni belgilash;
- mumtoz adabiyot tarixida nomanavislikning yetakchi xususiyatlarini va badiiy ijod bilan aloqador jihatlarini yoritish;
- Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari asosida nomaning badiiy-estetik, g'oyaviy-falsafiy jihatlarini ko'rsatish;

- mavzular talqini va poetik ifoda muammolarini tadqiq etish;
- nomaga oid asarlarning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o'рни va ahamiyatini asoslash.

Tadqiqotning obyekti. O'zbek adabiyotida nomanavislik doirasida bir necha asarlar yaratgan bo'lib, ilmiy izlanishlarimiz obyekti sifatida "Muhabbatnoma", qisman "Taashshuqnoma", shuningdek, "Latofatnoma" asarlari tanlandi. Shuningdek, o'рни bilan boshqa adabiy, ilmiy-filologik, xotira asarlarga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning predmeti. Biz mazkur magistrlik dissertatsiya ishimizda noma janri xususiyatlari muammolarini yoritishga qo'l urar ekanmiz, jamiyat va har bir shaxs hayotiga singib ketgan ma'naviy-falsafiy qarashlar, barkamol shaxsning ruhiy-axloqiy tayanchi hisoblanadigan badiiy ijod namunalarining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi o'рни, falsafiy tafakkur taraqqiyotidagi hissasi, ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi ahamiyatini yoritish bilan birga, estetik bilan bog'liq qarashlarning badiiy adabiyotga kirib kelishi, shu asosdagi insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarining adabiy-badiiy talqinlarini imkon darajasida tahlilga tortishga harakat qildik.

Mavzuga aloqador ilmiy-filologik, badiiy asarlar, mumtoz adabiyotshunoslik va hozirgi davr adabiy-nazariy qarashlari aks etgan manbalar tahlili, nomalarning mavzu, janr va kompozitsion xususiyatlari, salafilar an'analarning davom ettirilishi va yangiliklari, mualliflarning poetik mahorati masalalari mavzuning predmeti bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlool mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga oid asarlari, hukumatimiz tomonidan adabiy-madaniy merosni o'rganish va targ'ib etishga oid Qarorlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, xolislik tamoyiliga asoslangan holda, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayanildi. Tadqiqotda qo'yilgan masalalarni yoritishda Ye.E. Bertels, A.Qayumov,

V.Abdullayev, G'.Karimov, N.Mallayev, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, I.Haqqulov, H. Boltaboyev va boshqa olimlarning ilmiy fikr va xulosalari asos qilib olindi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.

1. "Muhabbatnoma" asari yaratilgan davr nomanavisligi xususiyatlaridan kelib chiqib baholanadi;
2. Asarni voqelik va badiiy talqin nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil etiladi;
3. Lirik kechinmalarning badiiy talqin qilinishiga davr, ijodkor dunyoqarashi va ijodiy-estetik prinsiplarning ta'siri aniqlanadi;
4. Nomalarda asar yaratilgan muayyan davr muammolarining aks etishi ko'rsatiladi;
5. Xorazmiyning izdoshlari va salafлари ijodidagi tarixiy obrazlar talqinidagi o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlanadi;
6. Nomalarning Sharq, xususan, o'zbek adabiyotidagi genetik kurtaklari ko'rsatib beriladi;
7. Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini belgilashda muallifning poetik mahorati yoritiladi;
8. Tekshirishlar natijalari umumlashtirilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Sharq adabiyotida nomanavislik an'analari va ularga adabiyotshunoslar munosabatini belgilanadi;
2. Mumtoz adabiyotda nomanavislikning janr sifatidagi yetakchi jihatlari yoritiladi;
3. Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari va uning badiiy-estetik, g'oyaviy-falsafiy jihatlari ko'rsatiladi;
4. Ruhiy kechinmalar talqini va poetik ifoda muammolarini tadqiq etiladi;
5. Nomalardagi obrazlarning g'oyaviy-estetik funksiyalari aniqlanadi;
6. Noma janrida yaratilgan asarlarning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot o'zbek mumtoz nomanavisligida muallif qarashlari hamda badiiy tafakkurning sinkretlashuvi haqidagi tushunchalarni asoslaydi, bunday tipdagi asarlarning ajdodlarimiz ijodiy merosidagi o'rni va ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. Shuningdek, mumtoz epik va lirik asarlardagi obrazlarning paydo bo'lishi, ramziy ma'nolar tashishi genezisini o'rganadi, ularning botiniy ma'nolarini anglashga ko'mak beradi. "Muhabbatnoma"ning badiiy asar nuqtai nazaridan tahlili orqali adabiyotimizdagi turlicha qarashlarga oydinlik kiritadi hamda bir to'xtamga kelinishiga asos bo'ladi. Dissertatsiya Istiqlol sharoitida adabiy-madaniy merosga yangicha va xolis yondashuv ifodasi sifatida barkamol avlodni tarbiyalash ishlarida ham ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-estetik jihatdan foydalidir.

Tadqiqot natijalarining joriylanishi. Tadqiqot natijalari va materiallari uchta ilmiy maqolada, an'anaviy ilmiy-nazariy anjumanda qilingan ma'ruza matnida o'z ifodasini topgan.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya va uning avtoreferati Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2017 yil 15 mayda o'tkazilgan yig'ilishida (---raqamli bayonnoma) muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 2015-2017 yillar an'anaviy ilmiy-nazariy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni respublika ilmiy jurnallarida va ilmiy to'plamlarda e'lon qilingan maqolalarda o'z aksini topgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi **86** sahifani tashkil etadi.

I BOB.

NOMA VA UNING TARIXI

1-fasl. Nomaning janr sifatida shakllanishi

Sharq, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida turli munosabatlar bilan yozilgan noma (maktub, xat)lar mavjud. Ular mavzu-tematikasiga ko'ra bir-biridan o'zaro farqlanadi. Masalan, adabiyot tarixida "noma" deb ataluvchi tarix, memuar, sayohat yoki janglar ta'rifi haqidagi asarlar yaratilgan ("Zafarnoma", "Boburnoma", "Shayboniynoma" singari). Lekin ularda "noma" atamasi o'zgacharoq vazifani bajaradi. Masalan, "Zafarnoma" – zafarli jangovar harakatlar haqidagi asar, "Shohnoma" – shohlar tarixi haqidagi badiiy asar, "Sayohatnoma" - turli sayohatlar va sarguzashtlar tafsiloti haqidagi asar, "pandnoma" – nasihat-o'gitlar to'plami va hokazo.

Aslida, "noma" oshiqning ma'shuqaga yo'llangan maktublari tarzida yozilganligi tufayli ana shunday nom bilan atalgan".⁶ Shu bilan birga **noma** mumtoz adabiyotda sezilarli mavqega ega bo'lmish liro-epik janr hamdir. Tadqiqotimiz manbai bo'lgan "Muhabbatnoma", "Latofatnoma", "Dahnoma", "Taashshuqnoma" singari asarlar ana shu janr namunalari. Adabiyotshunos O.Jo'raboyevning fikricha, "Mumtoz adabiyot tarixida yana bir she'r turi borki, uni *mug'anniy* (mug'anniy - kuychi, bastakor, xonanda ma'nolarida) deb ataladi."⁷

"Noma" atamasiga "Navoiy asarlari lug'ati" da quyidagicha ta'rif berilgan: "**Noma**" - xat, maktub; risola; **Nomai iqbol** - mehribonchilik xati; xursandchilik xati; **Noma sabt etmak** - xat yozmoq; **Nomai ahmol** amallar (tiriklikda qilingan yaxshi, yomon – gunoh, savob ishlar) yozuvi."⁸ Nomaga bu tarzda xilma xil lug'aviy ma'nolar berilishi uning uzoq muddatli taraqqiyot

⁶ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2014. Б. 138

⁷ Жўрабойев О. Мумтоз адабиётда муғаннийнома. Т.: 2016. Б. 3

⁸ Навоий асарлари луғати. Т.: 1972. Б. 466

bosqichlaridan dalolat beradi. Darhaqiqat, noma ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik hodisaga aylana borish jarayonida xilma-xil vazifani bajaruvchi shakl va mundarijaga ega bo'la borgan. Natijada tarixchi olimlar o'rtasidagi yozishmalar tarixiy maktub, podshohlar o'rtasidagi yozishmalar diplomatik maktub, yozuvchilar o'rtasidagi yozishmalar adabiy maktub shakllarini ola boshlagan. Abu Rayhon Beruniy hamda Ibn Sino singari mashhur siymolar o'rtasidagi maktub-yozishmalarda umumjahon madaniyati va ilm-faniga oid muammolar o'rta tashlangan bo'lsa, Jomiy va Navoiylar o'rtasidagi insho-yozishmalar muayyan bir davrning ijtimoiy, madaniy, adabiy masalalarini qamrab olgan. "Boburnoma" muallifining o'g'li Humoyunga bag'ishlangan maktubi mazkur asar tarkibidan o'rin olishi esa oilaviy, tarbiyaviy muhitning sharqona ifodasini o'zida aks ettirgan. Shuningdek, Muqimiy va Furqatlar o'rtasidagi maktub-yozishmalarda vatan tushunchasining qadr-qimmati, milliy mentalitet hamda shaxs qismati masalalari qamrab olingan.

Nomalarning badiiy asarlar tarkibida kelishi esa muayyan kompozitsion ko'rinishni ta'minlash, qahramon ruhiyati, ma'naviy olami haqidagi tasavvur va tushunchalarni boyitishga yo'naltirilgan. Farhodning Shiringa, Laylining Majnunga maktublari, Kumushning Otabekka yozgan maktublari asar syujetida muhim o'rin tutib, qahramonning to'laqonli obraz darajasiga ko'tarilishiga yordam bergan. Bunday maktub-nomalar muayyan asar tarkibida kelganligi uchun ham alohida tahlil obyekti qilib olinmagan yoxud syujet elementi sifatida tilga olingan xolos. Endilikda o'zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, o'tmishda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik istiqlolgacha bo'lgan davrlarda badiiy asarlarni asosan ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazaridan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi o'sha qoliplarni tark etib, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matnning o'zidan keltirib chiqarishga, bir so'z bilan aytganda, tizimli tahlil qilishga harakat qilmoqda. Natijada ko'plab mumtoz adabiyot namunalarining asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir.

Bugungi kunda mumtoz adabiyot namunalari, jumladan she'riy asarlarni ta'lim tizimida o'qitishning bir qancha muammolari ko'zga tashlanadi. Ulardan eng asosiysi mumtoz adabiyot namunalari matnini tushunish va to'g'ri tahlil etishdir. Chunki har bir kitobxon qandaydir yangi, hali ma'lum bo'lmagan tomonlarini ochishi mumkin bo'lgan badiiy matnni to'g'ri idrok qila olishi lozim bo'ladi.

Ilm-fan, ta'lim, adabiyot va san'atda arab va fors tillarining mavqei asrlar davomida baland bo'lgan. Bir necha yuz yillar davomida ilmiy asarlarning aksari arab tilida, badiiy asarlar turkiy til bilan bir qatorda fors tilida yaratilgan. Shu bois bu ikki tilga oid mansub lug'aviy birliklar o'zbek so'zlashuv hamda kitobiy tilidan mustahkam joy olib, ko'plab so'zlar faol lug'at boyligimizga aylangan. Mumtoz shoirlarning deyarli barchasi arab va fors tillari mukammal o'rgatiladigan madrasalarda o'qiganlar, bu tillarda yaratilgan ko'plab asarlarni asl nusxada mutolaa qilganlar. Demak, shoirlarning badiiy tafakkuri shu tillarda yozilgan mumtoz asarlar ta'sirida shakllangan. Jumladan, Alisher Navoiyning insho-xatlari majmuasi bo'lmish "Munshaot" asarida o'zbek tilidagi matn orasida forsiy she'rlar, iboralardan tez-tez foydalanilishi ham buning yaqqol dalilidir.

Adabiyotdagi har bir adabiy janrning paydo bo'lishi manbalarini tekshirganda tarixni insoniyatning taraqqiyot jarayoni deb bilish, har bir adabiy janr taraqqiyotini shu adabiyotni yaratuvchisi bo'lgan xalqning tarixiy ehtiyojini qondirish vositasi sifatida qarash talab qilinadi. Shunga ko'ra noma janrining paydo bo'lishini, uni yuzaga keltirgan dastlabki manbalarini izlasak, bu bizni juda qadimiy davrlarga yetaklaydi. Gap shundaki, qadimgi ajdodlarimiz hali yozuv madaniyati paydo bo'lmasdan ancha ilgari xilma-xil janrlarda og'zaki ravishda ijod etganlar, yangi-yangi so'z shakllarini yaratganlar. Ana shunday badiiy shakllardan biri she'riy maktub-noma janridir. Bizgacha xalq og'zaki ijodida yaratilgan noma janrining namunalari juda oz saqlanib qolgan. Shunga qaramay, mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari qimmatli yodgorlik sifatida bu borada ajoyib ma'lumotlar beradi. She'riy nomalar yo'llash juda

qadimgi davrda paydo bo'lganligining isboti sifatida “Devonu lug'otit turk”dan quyidagi parchani keltirish mumkin:

Turkon xotun qoshiga

Mendin yetkur she'r.

Xizmatga xodimingiz

***Rost deb bayom ber.*⁹**

Bu to'rtlikda aniq shaxs ismi bo'lib, lirik qahramon Turkon xotun degan ayolga she'riy noma yo'llab, uning har bir ishiga (xizmatiga) tayyor ekanligi xabarini yuboradi. Shuningdek, qadimiy xalq dostonlarida ham noma janridan foydalanganligini kuzatish mumkin. Barchinning Hakimbekka yo'llagan nomasi buning yaqqol dalilidir.

Bundan ko'rinadiki, nomalarning paydo bo'lishida xalq og'zaki ijodi ham muhim o'rin tutadi. XI-XIV asrlar qadimgi turkiy tildagi yozma adabiyotning tarixida katta bir davrdir. Bu davrda o'zbek adabiyoti yangi-yangi badiiy asarlar bilan birga yangi adabiy janrlarni ham yuzaga keltirdi. Ana shunday janrlardan biri noma janridir. Noma janrining katta badiiy asar tarkibidagi ko'rinishini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida uchratamiz. Ilm ahllarining mamlakat ishlarida, uni to'g'ri, adolatli boshqarishda ishtiroki yo'qolib borayotganligini anglagan Kuntug'di Oyto'ldining o'g'li O'zg'urmishga o'ziga o'xshagan donishmand kishilarni saroy xizmatiga jalb etishni topshirganida, O'gdulmish shunday bir odam borligini, lekin u dunyo ishlaridan yuz o'girib, uzlatga chekinganligini, uning nomi O'zg'urmish ekanligini aytadi. Shunda Kuntug'di O'zg'urmishga maktub yo'llab, uni saroyga, o'z huzuriga chorlaydi. Birinchi nomaga rad javobi olgach, ikkinchi marta yana noma jo'natadi. Agar bu safar ham kelmasa, uning huzuriga o'zi borajagini ma'lum qiladi.¹⁰

Arab xalifalari hukmronligining yemirilishi va mahalliy feodal davlatlar (Somoniyalar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar)ning yuzaga kelishi Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjonda Uyg'onish davrini ham boshlab

⁹ Қаюмов А. Қадимият обидалари. Т.: 1972. 11-бет.

¹⁰ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. 500-, 568-бетлар.

berdi. Natijada milliy mustaqillik milliy adabiyotlar ravnaqiga ham zamin yaratdi. Xususan, fors-tojik tilining madaniy va adabiy hayotdagi roli nihoyatda oshdi. Bu davr poeziyasida noma janrining dastlabki namunasini XI asrda yashab ijod etgan Faxriddin Gurgoniyning “Vis va Romin” dostonida uchratamiz. Asar syujetidan ma’lum bo’lishicha, unda qadimgi odamlarning zardushtiylik aqidalari asosidagi hayot tarzi ifodalangan.

Bu asarning muhim jihatlaridan biri shuki, unda ishqiy nomalar, xususan, Vis nomidan bitilgan o’nta noma asar syujeti ichida alohida “Dahnoma” sarlavhasi ostida berilganidir. Undagi har bir noma ayol nomidan uni tashlab ketgan oshiqqa qarata yozilgan bo’lib, ma’shuqa sevgisining otashin izhorlari, ayriliq izzitoblari, umidvorlik tuyg’ulari bilan to’lib toshgan. “Vis va Romin” dostonidagi nomalarning bu xususiyatlari ayniqsa quyidagi misralarda ravshan xarakterlangan:

Ma’shuqa o’zining hijronga tashlab ketilganidan faryod chekadi, firoq alangasida o’rtanayotganligidan noliydi.

Tu to rafti, biraft az man hama kom,

Na didorat hameyobam, na orom.

Mazmuni:

Sen ketdingu sen bilan hamma orzu-niyatlarim ham ketganday bo’ldi,

Na diydoringa yetaman, na orom topaman.

Nomalarda ma’shuqa (Vis)ning oshiq (Romin) visoliga qayta musharraf bo’lishda yaratuvchidan madad tilash, undan Romin qalbida o’ziga bo’lgan muhabbatni alangalatishni iltijo etish lavhalari ham mavjud. Noma-maktublarda ayol qalbi nolalarining butun ko’rinishlari o’zining to’la aksini topgan bo’lib, Visning Rominga bo’lgan sevgisi, undan ayriliqda kechayotgan kunlarning butun g’amgin onlari, yurak torining alamli ohanglari, bevafo oshiq xiyonatidan chekayotgan izzitoblari, barcha dilozorliklarga qaramay kelajakka umidvorlik bilan boqishlari, ezgu intilishlari aks etgan. Nomalar hajm jihatdan katta (16 baytdan 50 baytgacha) bo’lib, muallif bu noma-maktublarda bir yoki bir necha holatni ifodalashga erisha olgan.

Asardagi nomalarning bu xususiyatlari unda qo'yilgan masalalarning qisqa shaklda emas, balki juda keng, har tomonlama mukammal, Sharq adabiyoti an'analariga mos xilma-xil tasviriyl vositalar orqali mahorat bilan yoritishga imkon beradi.

Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" dostonidan keyin oshiqona nomalar Nizomiyning "Xisrav va Shirin", Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav" dostonlarida ham yaratilgan edi. Shundan kelib chiqib, noma janri borasidagi fikrlarimiz XII-XIV asrlarda fors-tojik tilida yaratilgan ulkan badiiy adabiyot durdonalariga borib taqaladi. Endilikda noma-maktublar badiiy asarlar tarkibidan chiqib, alohida janr shaklini ola boshladi. Noma janrida, ayniqsa, sevgi-muhabbat mavzusida ko'plab badiiy asarlar maydonga keldi. Bular ichida Avhadiy, Xoja Kirmoniy, Ibn Imodlarning "Dahnoma" asarlari shu davrda fors tilida yaratilgan sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan noma janrining nodir namunalari ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu asarlarning bizgacha yetib kelgan dastlabki namunasi Avhadiy (1274-1338) tomonidan 1306-1307 yillarda yaratilgan "Dahnoma" asaridir. Asar o'zining tuzilishi, obrazlari, badiiy xususiyatlari jihatidan shu janrdagi yangi original asardir. Avhadiyning "Dahnoma" asari oshiq va ma'shuqaning o'zaro sevgi-muhabbat mavzuidagi yozishmalari –nomalaridan tuzilgan o'ziga xos g'oyaviy-badiiy mundarijaga egadir. Unda muqaddimadan tashqari o'nta she'riy noma berilgan. Odatda bunday asarlarda qahramonlarning nomi ko'rsatilmaydi, ular "oshiq" va "ma'shuqa" deb yuritiladi. Ular o'rtasidagi nomalarni yetkazishda sabo yoki tong nasimi elchilik qiladi. Shu tariqa Sharq, xususan, o'zbek adabiyotiga **"Nomabar"** - ya'ni xat, maktub, noma yetkazuvchi obrazi ham kirib keldi.

Avhadiydan keyin "Dahnoma yozish an'anaga aylandi. 1322 yilda Xoja Kirmoniy "Muhabbatnomai sohibdilon" yoki "Dahnoma" asarini yaratadi. Bu asar Avhadiy an'anasining davomi bo'lib, unda ham muqaddima va o'nta noma mavjud edi. Muallif ishq-muhabbat haqidagi fikr-mulohazalarini sakkizta oshiq-ma'shuqlar haqidagi ixcham rivoyatlar bilan izohlaydi. Bular "Varqa bilan

Gulshoh”, “Vis va Romin”, “Vomiq va Uzro”, “Xusrav va Shirin”, “Rubob va Daf”, “Bishr va Hind”, “Yusuf va Zulayxo” kabilardir.

XIV asr oxirlarida Xoja Kirmoniyning o’g’li ibn Imod o’zining “Dahnoma” asarini yaratadi. Bu ham Avhadiy asarining ta’sirida yuzaga kelgan. Asar mazmunidan anglashilishicha, go’zal bir qizni ko’rib qolgan yigit unga oshiqona xat-noma yozadi. Qiz esa yigitni bu yo’ldan qaytarishga urinib, unga ta’na to’la javob yozadi. Ammo yigit o’z ahdida sobit turib, sevgisidan qaytmaydi. Oqibatda ma’shuqa oshiq bilan uchrashuvga rozilik beradi.

Shunday qilib, XIV asrda fors-tojik tilida ketma-ket uchta “Dahnoma” yaratiladi. Natijada noma maxsus adabiy-badiiy janr sifatida shakllanadi.

Fikrimizcha, noma janri o’z xarakteriga ko’ra ikki guruhga ajraladi:

1. Katta epik asarlar tarkibidagi nomalar. (Yuqorida aytganimizdek, Faxriddin Gurgoniyniing “Vis va Romin”, Nizomiyniing “Xusrav va Shirin”, Xusrav Dehlaviyniing “Shirin va Xusrav”, Alisher Navoiy asarlari tarkibidagi nomalar shular jumlasiga kiradi).

2. Masnaviy yo’lida yozilib, maxsus ishq-muhabbat mavzusidagi nomalardan tashkil topgan asarlar. (Avhadiyniing “Dahnoma”, Xoja Kirmoniyning “Muhabbatnomai sohibdilon”, ibn Imodning “Dahnoma” asarlari).

Qadimgi turkiy xalqlar og’zaki ijodiyoti hamda yozma adabiyot an’analari davom ettirgan, o’z navbatida fors-tojik tilidagi adabiy an’analardan bahramand bo’lgan o’zbek nomachiligi XIII-XV asrlarda keng taraqqiyot yo’liga chiqib oldi. Bu davrlarda o’zbek adabiyotida yangi-yangi janrlardagi badiiy asarlar bilan birga nomalar ham yuzaga keldi. Bu janrning o’zbek adabiyotidagi birinchi kashfiyotchisi Xorazmiydir. Nomaning adabiy-badiiy janr sifatidagi yorqin namunasini Xorazmiy o’zining “Muhabbatnoma” asari orqali yaratib, o’zbek mumtoz adabiyotida nomachilik an’anasini boshlab berdi.

Mazkur nomalarda asosan, oshiq obrazi yaratilib, bu obrazning hayot va insonga, xususan, ma’shuqaga bo’lgan qarashlari, munosabatlari, kechinmalari fonida ma’shuqaning tavsifiy obrazi yaratiladi. Shuning uchun ham bu asarlarda lirik tasvir kuchli bo’lib, epik holat ikkinchi planda bo’ladi. Nomachilikda lirik

tasvir bilan epik ifodaning uyg'unlashib borishida XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Yusuf Amiriy "Dahnoma"sining ahamiyati alohidadir.

"Dahnoma" shoir ijodida muhim o'rin tutadi. Amiriy bu asari orqali o'zbek nomachiligini yangi bosqichga ko'tardi. Bu asar Shohruh Sultonning katta o'g'li Boysung'ur mirzoga atab yozilgan. Asar muqaddimasi va xotimasida Boysung'ur mirzoga qasidalar bag'ishlangan.

Amiriy o'z nomasini yaratishda ko'proq Nizomiya ergashadi. Asar oxiridagi ushbu misralar ham buni tasdiqlaydi:

Nizomiydek ishin bedardu ranj et

Aning "Dahnoma"sin "panj ganj" et.

XIV asr o'rtalaridan boshlab o'zbek adabiyotida noma janri taraqqiy etib, Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Xo'jandiyning "Latofatnoma", Sayyid Ahmadning "Taashshuqnoma" asarlari yaratilgan edi. Amiriy, albatta, o'zbek tilidagi bu nomalardan yaxshi xabardor bo'lgan. Chunki "Latofatnoma" va "Taashshuqnoma" bevosita shoirning zamondoshlari tomonidan yaratilgan bo'lsa, Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari XV asr boshlarida ilm-fan, madaniyat va san'at ahli nazarida hurmat-e'tibor topgan, zamona shoirlari unga ergashib, yangi nomalar yaratgan edilar.

Boshqa nomalar bilan Amiriy "Dahnoma"sini qiyosiy tekshirish shuni ko'rsatadiki, shoir o'zbek adabiyotida noma janrining an'anasini davom ettirgan bo'lsa ham asar kompozitsiyasini tuzishda butunlay yangi yo'l tutgan. U Nizomiyning "Xusrav va Shirin" va Avhadiyning "Dahnoma" asaridan ta'sirlanib, kompozitsion tuzilishi va mazmuni jihatdan original, noma janrining yangi pog'onasi bo'lgan nodir liro-epik asar yaratishga erishadi.

Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asari muqaddima, asosiy qism va xotimadan tashkil topgan. Muqaddimada munojot, naht, Sulton Boysung'ur mirzo madhi, Horun ar-Rashid hikoyati, sababi nazmi kitob qismlaridan iboratdir.

"Dahnoma"da tasvirlanishicha, bir yigit do'stining uyidan mehmondorchilikdan qaytayotib, yo'l ustida go'zal bir qizni uchratib qoladi. U qiz bilan suhbatlashmoqchi bo'ladi. Lekin suhbat qovushmaydi. Yigit va qiz o'z

yo'llariga ravona bo'ladilar. Ammo yigit qizning sarvdek qaddi qomatini, husnu jamolini eslab, muhabbat ostida qovrilib, tuni bilan uxlay olmaydi, uning qalbida qizga nisbatan samimiy muhabbat tuyg'ulari alangalanadi. U o'zining bunday his-tuyg'ularini qizga yetkazish yo'llarini axtaradi va ertalabki tong shabadasi Saboga murojaat qiladi. Sabo oshiqning iltimosini bajarish uchun yo'lga o'tlanadi. U ma'shuqa manziliga yetib, odob va tavoze bilan oshiq nomasini qizga tutqazadi.

Oshiq o'z nomasida ma'shuqaning o'zini maftun etgan mubolag'aviy tasvirini ta'rif etib, ana shu go'zallikning maftuni bo'lib qolganligini, ma'shuqa uning inon –ixtiyorini olganligini bayon etadi. U ma'shuqadan o'ziga rahm-shafqat qilishini, begonalardek muomala qilmasligini o'tinadi. Oshiq o'z nomasini “Yuzung bergay xud oxir oshnolik” deya umidbaxsh ruh bilan tugatadi. Muallif noma oxirida oshiq nomidan ma'shuqa sha'niga maqtovlar bilan to'la g'azal bitadi va uni bir fard bilan tugallaydi.

Sabo orqali oshiqning nomasini olgan ma'shuqa undagi oshiqona mazmunidan jahli chiqadi, g'azablanadi. U oshiqni muhabbatdan lof uruvchi, o'zini zo'rma-zo'raki oshiq qilib ko'rsatuvchi parishon fikrli devonalardan biri deb hisoblaydi. U iztirob va itob bilan oshiq yigitga noma yozadi. Ma'shuqa o'z javobida yigitni bu nomaqbul fikridan qaytishga da'vat etadi. Yigitga visol onlarining nasib etmasligini, shuning uchun bu xom xayolni boshidan chiqarib yuborish kerakligini uqtiradi.

Bu yerda shoir “ishq boshqa, havas boshqa” naqliga amal qilib, ma'shuqa tilidan sevgi-muhabbat murakkab olam ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Ma'shuqa ishq yo'lidagi qiyinchilik, iztirob va mashaqqatlarni birma-bir sanab, oshiqni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi. Albatta bu so'zlarning hammasi oshiq ishqining pokligini, uning muhabbatdagi sadoqatini sinab ko'rish, oshiqning ishq haqiqiyligi yoki shunchaki hoyu havas ekanligini aniqlash uchun ishq yo'lida qo'yilgan sinov lahzalari edi xolos.

Oshiq ma'shuqaning ta'nalarga to'la nomasini o'qir ekan, undagi nashtardek dilga botuvchi itob so'zlaridan xafa bo'lmaydi. Oshiq uchun eng muhimi, unga umid baxshida etadigan hol ma'shuqaning javob nomasi bo'ladi.

Oshiq ma'shuqa nomasiga darhol javob yozishga kirishadi. Bu nomada ham ma'shuqaning sehra jozibasi ta'rif va tavsif etiladi. Uning shamshoddek qomatini, o'likka jon bag'ishlovchi labini, oshiqlar imoni bo'lgan ko'zlarini, loladek yuzini chiroyli iboralar, o'xshatishlar, tazod va boshqa badiiy usullar bilan ta'riflab, shunday go'zallik boshqalarga ham ezgulik baxsh etishi, "oshiq jarohatiga tuz sepmasligi" kerakligini, jafoni haddan oshirish ma'shuqaga yarashmasligini uqtiradi. Nomada oshiq o'z jonini ma'shuqa yo'lga tikkanligi, niyati yaxshi va e'tiqodi mustahkam ekanligini ta'kidlaydi, o'z nomasini umidvorlik tuyg'ulari bilan yakunlaydi.

Oshiqning nomasini o'qigan ma'shuqa oshiq ahvolini sezgirlik bilan his etadi, uning ishq pok, so'zi rost ekanligini anglaydi. U endi oshiq dilini jarohatlashni, ishq o'tida qovrilayotgan badanga tuz sepishni o'ziga munosib ko'rmaydi. "Arodin yotlik hijobini olib, ochiq-yorug javob yuborishga" ahd qiladi. U oshiqqa noma yo'llar ekan, avvalgi nomadagi gaplar uning sevgisini bir sinovdan o'tkazish uchun atayin aytilganligini ta'kidlaydi.

Shu o'rinda shoir "oltin o'tda sinaladi" degan xalq maqolini keltirib, oshiqning haqiqiy oshiqligi ham sinovlarda aniqlanadi, demoqchi bo'ladi. Ma'shuqa o'z nomasida oshiqning sevgisi haq, so'zi rost ekanligiga ishora qiladi.

Menga bildurdi emdi ittihoding,

Bor emush zulfuma chin ehtiqoding,

Sango ul zamzama bexost ermish,

Har ohangiki qilding rost ermish.

Ma'shuqaning bu nomasi oshiqni benihoya xursand etadi. Unda ma'shuqa visoliga yetishish ishtiyoqi ortadi. Oshiq sevinganidan xushxabar keltirgan saboga minnatdorchilik bildiradi, uning qadami qutlug' ekanligini ta'kidlaydi. Oshiq tezda ma'shuqaga javob nomasi yozadi va uni sabodan yuboradi.

Oshiq nomasini olgan ma'shuqa uni harfma-harf o'qib chiqib, oshiqning ishq yo'lida chekayotgan ichki kechinmalaridan iztirobga tushadi, oshiqqa hamdardlik tuyg'ulari paydo bo'ladi. Bu muhabbat alangasi ma'shuqa qalbini ham asta-sekin egallay boshlaydi. Lekin ma'shuqa oshiq yigitni yana bir sinovdan

o'tkazishga qaror qiladi. Uning ishq i sof va pok ekanligini tekshirib ko'rishga qaror beradi.

Ki har nargisga ul ko'z solguvchidur,

Tili savsan bikin so'z solguvchidur.

Ko'rub har sarvni borur o'zidin,

Yurur juyonu suv turmas ko'zidin.

Ma'shuqa bu satrlarda "tili boshqa, dili boshqa" oshiqlarni har kuni yangi-yangi ma'shuqaga ilashadiganlarni nazarda tutadi va ularni qoralaydi. U o'z oshig'idan haqiqiy sadoqat va vafodorlikni, ishqda sobitqadamlikni va poklikni talab qiladi.

Xorazmiyni noma yozishga da'vat etgan Oltin O'rda xoni Jonibekning Xorazmdagi noibi Muhammad Xojabek fors-tojik adabiyotidagi nomalardan voqif ekanligi, shuningdek, Xorazmiyning so'z san'atidagi iqtidorini bilgani holda uni fors-tojik tilida ijod qilgan so'z san'atkorlari bilan ijodiy musobaqaga undayotganligini payqash qiyin emas.

Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,

Ochunda forsiy daftarlaring bor.

Muhabbat nardini ko'plardan o'ttung,

Shakartek til bila olamni tutting.

Bu davr Xorazmda o'zbek tili ravnaqi uchun kurash kuchaygan bir payt edi. Xalqning vatanparvarlik va milliy his-tuyg'ularini hisobga olgan Muhammadxojabek Xorazmiydan o'zbek tilida asar yozishini so'raydi:

Tilarmenkim bizning til birla paydo

Kitobe aylasang bu qish qotimdo.

Bundan tashqari Xorazmiy "Muhabbatnoma" asarining 2 ta nomasini va 2 ta g'azalini fors-tojik tilida yozganligini e'tiborga olsak, noma muallifining har ikki tilni mukammal bilganligiga va har ikki tilda barakali ijod qilganligiga ishonch hosil qilamiz.

"Muhabbatnoma" ishq-muhabbat mavzusida o'zbek tilida yaratilgan noma janrining birinchi nomasi, yagona yodgorligidir. Xorazmiy bu asari bilan o'zbek

adabiyoti ravnaqiga bemisl hissa qo'shdi. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ham o'zining "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida "Muhabbatnoma"dan

Aningkim ol yanoqinda meng yaratti,

Sochi birla bo'yini teng yaratti, -

singari misol va namunalar keltirishi muallifning keyingi asrlarda ham adabiyot ixlosmandlari o'rtasida shuhratini yo'qotmaganligini ko'rsatadi.

"Muhabbatnoma"da an'anaviy muqaddimadan tashqari noma, g'azal, qasida, fard, qit'a, munojot, masnaviy, voqeh, hikoyat kabilar bor. Lekin asar mag'zini oshiqning ma'shuqaga yozgan o'nta nomasi tashkil etadi. Nomalardan ikkitasi fors-tojik tilida yozilgan. Nomalar muayyan o'lchov asosida yaratilgan. O'zbek tilidagi nomalar asosan 22 baytdan, fors tilidagi nomalar 32-36 baytdan tashkil topgan. Nomalardan faqat ikkinchi noma "Tong nasimi"ga murojaat bilan boshlansa, boshqa nomalar bevosita ma'shuqaning o'ziga murojaat qilish bilan boshlanadi.

Xorazmiy asarni yaratishda qaysi manbalarga tayanganligini ko'rsatmagan. Lekin muallif bu asarni yozgunga qadar katta ijodiy tajribaga ega bo'lgan yetuk shoir bo'lganligi, muhabbat mavzusida go'zal lirik asarlar yaratib, shuhrat tutgan zullisonayn ijodkor bo'lganligi aniq.

Shoir Oltin O'rdada bir muddat yashagan, Qrim, Kavkaz, Kichik Osiyo va Shomi Sharifga sayohat qilgan. Bu mamlakatlarda fors-tojik, turk, arab tillarida yaratilgan badiiy adabiyotlar bilan tanishgan. Bu mamlakatlarda o'sha davrda dostonlar tarkibida va alohida badiiy asar sifatida sevgi-muhabbat maktublari tarzida ko'plab "noma"lar yaratilgan edi. O'zbek adabiyotida esa bu tipdagi janrga namuna bo'ladigan asar "Muhabbatnoma" yozilgunga qadar bo'lganligi ilm olamiga ma'lum emas.

Xorazmiy o'zining "Muhabbatnoma" ustidagi ishida dastlab turkiy tildagi adabiyotning eng yaxshi namunalaridan oziqlangan fors-tojik tilidagi Avhadiy "Dahnoma"sidan, xamsanavislikdagi oshiq-ma'shuqlarning savol-javob lavhalaridan bahramand bo'lgan.

Xorazmiy o'zidan avval yaratilgan nomalardan yaxshi xabardor bo'lgani holda, o'z ijodiy 'rinsi'laridan kelib chiqib, "Muhabbatnoma"ni faqat oshiqning ma'shuqaga yozgan nomalari tarzida yaratishga qaror qiladi. Unda ma'shuqa tavsifiga keng o'rin berilgan bo'lib, vasf yetakchi o'rinni egallaydi. Asarda ma'shuqa ma'naviy dunyosini ochadigan, oshiqqa qarata yozilgan javob nomalari yo'q.

Xorazmiy fors-tojik adabiyotida mavjud nomachilik an'analari – muqaddima, asar yaratilish sababi, nomalar, xotima kabilarga rioya qilgani holda asarning qurilmasi jihatidan ulardan farqli usulda butunlay yangi original ijod namunasini yaratadi. Bu so'zsiz Xorazmiyning o'z davri estetik talablaridan kelib chiqib ish tutganligidan darak beradi.

Faslda bayon etilgan fikr-mushohadalar hamda ma'lumotlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Nomalar she'riy (ko'proq g'azal janrida) hamda nasriy (maktub, xat) shaklida bo'lishi mumkin;
2. Nomalarda quyidagi obrazlar bo'lishi mumkin: a) hikoyachi-muallif b) oshiq; v) ma'shuqa; g) vositachi – sabo, nomabar, qosid va b.
3. Nomalardagi badiiy-estetik g'oyalar, pand-o'gitlar, falsafiy qarashlar xususiylikdan umumiylikka ko'tarilgan bo'lishi lozim. (Aytaylik, SHirinning Farhodga nomasida Xisrav tomonidan keltirilayotgan zulm va zarar nafaqat o'ziga, balki xalqqa ham jabr bo'layotganligini qayd etadi, Boburning Humoyunga nomasida xalq bilan aloqani uzmaslik, savodxonlikka e'tibor masalalari qo'yiladi va hokazo).
4. Noma janri talablariga javob berishi uchun lirik kechinmalar ifodasidan tashqari muayyan ijtimoiy hodisalar bayoni ham liro-epik tarzda aksini topgan bo'lishi lozim.

2-fasl. Nomalarning badiiy asar tarkibidagi o'rni

Nomalar badiiy asarlar tarkibida kelishi ularning syujet tarmog'idagi uzviy bir qismga aylantiradi. Muallif noma yozuvchi qahramon tilidan ham shaxsiy fikr-mulohazalarni, ham insoniy tuyg'ularni badiiy bayon etadi. SHu bilan birga asar yaratilayotgan davr manzaralarini chizishga ham muvaffaq bo'ladi.

Ruhiy tahlil ufqlarini kashf etishda Alisher Navoiy Sharq adabiyotida keng tarqalgan usullardan biri bo'lgan noma-maktublardan ham unumli foydalanadi. Layli va Majnunning noma-maktublarida har ikki ishq giriftorining qalb sirlarini, ko'ngil kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini to'laqonli ochib beradi. Masalan, Layli har qancha fidoyi mahbuba, sadoqatli va oqila ma'shuqa bo'lmasin, oddiy bir qiz sifatida Qaysning Navfal qiziga unashtirilishi voqeasiga befarq qarab tura olmaydi, zimdan rashk qilayotganini sezdirib qo'yadi. U Majnunga gina qilib, quyidagilarni yozadi:

***...Mundog' dag'i dedilar fasona
Kim Navfal ila bo'lub yagona***

***Chun hujlasi sori ko'z solibsen,
Qo'lmoqqa qizini so'z solibsen.***

***Bo'lsun sanga baxt yoru yovar,
Billah manga tushmadi bu bovar.***

Shunday bo'lsa-da, Layli oliyjanob inson sifatida Majnunga baxt va iqbol tilaydi. Navfalning qizi haqida yaxshi fikrlar bildiradi.

Majnun Laylining maktub-nomasini o'qir ekan, xijolatda qolib, javob maktubida Navfalning qizi bilan bo'lgan voqealarda hushi o'zida emasligini uqtiradi. Buning uchun yoridan uzr so'raydi. Shu bilan birga u ham Layliga ginaxonlik qilib, Ibn Salomni eslatadi: Meni uylanibsan, deb xijolatga qo'yasan-u, sen o'zing Ibn Salom bilan nikohdan o'tmoqchi bo'lasan, deydi maktubida Majnun:

***Uylanmak ishiki nisbat etting,
Bizga o'z ishingni tuhmat etting.***

***Kim Ibn Salom etib xayoling,
Balkim tamah aylabon visoling.***

***Ko'nglini otang qilib tarozi,
Bo'lmish ne ul istaganga rozi.***

***Sen rozi erur, emasni bilmon,
Bilmas nima tuhmatini qilmon...***

Ko'rinadiki, har ikki qahramon ham insoniy his-tuyg'ulardan begona emas. Ular faqatgina adabiy obraz emas, balki jonli timsol sifatida yodimizda qolishiga ana shu ruhiy tahlillar aks etgan misralar yaqindan yordam beradi.

Laylining ota-ona qarshiligi, muhit noroziligiga qaramay, Qaysga sadoqat bilan, muhabbat bilan bog'lanishi uning o'z davridan birmuncha yuqori ko'tarila olganligidan dalolat beradi. Chunki u o'z muhitida Qayschalik ham huquq va imkoniyatlarga ega emas. Qaysga yozgan maktubida bu holni quyidagicha ifodalaydi:

***...Sening nechakim g'amingga yo'q mahl,
Chun er kishisen, bu sahl erur, sahl.***

***Har sori uray desang taningni
Tutquchi tikandur etagingni...***

***Bo'lmoq yuz alam uyida mahbus
Biryon, yana biryon o'ldi nomus.***

***Er majlisi aro roh erur zeb,
Xotun kishiga saloh erur zeb...***

Laylining fojiasi haq-huquqi 'oymol qilingan ming-minglab laylilarning fojiasi edi. Navoiy Layli fojiasini uning o'z maktubi vositasida tasvirlash bilan bu fojiaga sabab bo'lgan qonun-qoida va urf-odatlarga qarshi o'z munosabatini ham bildiradi, shaxs erkini, inson muhabbatini, xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qiladi.

“Farhod va Shirin” dostonidagi noma-maktublar ham asar mazmun-mohiyatini kengroq yoritishda, qahramonlarning ma’naviy-ruhiy holatlarini tasvirlashda muallifga juda qo’l kelgan. Xususan, biri Chin hoqonining o’g’li, ikkinchisi Arman o’lkasining malikasi bo’lishiga qaramasdan davr, muhit ta’sirida o’z xohish-irodasi bilan yashay olmagan notavon oshiq-mahshuqlarning ahvoli-ruhiyasi nomalar orqali, ularning o’z tillaridan batafsil ifoda etiladi. Ayniqsa, Shirinning noma-maktubida go’zal va oqila qizning o’z taqdiridan o’kinishi, sevgilisidan yiroqda, hijronda yashashdan shikoyati, o’zini har qancha baxtsiz his qilmasin, aziz kishisiga umr va saodat tilashi o’quvchini kuchli hayajonga soladi.

Muallif noma janrining talablariga ko’ra, xat bituvchining xatni oluvchidan hol-ahvol so’rashi bilan boshlanadi:

***Nedur ahvoling, ey zori g’aribim,
Visolim davlatidin benasibim?***

***Chekardin g’am tog’in holing nechukdur,
Bu yukdin jismi chun noling nechukdur?***

***Qatiq g’urbat aro holing ne erkin,
Achiq furqatda ahvoling ne erkin?***

Ma’lumki mumtoz adabiyot namunalarida Farhodni “Ko’hkan”, ya’ni tog’ qazuvchi nomi bilan ham ataydilar. Shirin “g’am tog’i” iborasini qo’llash orqali nozik so’z o’yini qilish bilan birga, o’z oshig’ining g’am tog’i ostida qolganligiga ham ishora qiladi. Alisher Navoiyning poetik mahorati yana shunda ko’rinadiki, Shirin tilidan uning go’zalligidan dalolat beruvchi tunde k qora sochlari, mehrobni eslatuvchi qoshlari, tikandek ki’riklari va boshqalarni ham sanab o’tadi. Ammo bu bizga erish tuyulmaydi. Chunki Shirinning qora sochlari g’amida oshiqning jonu jahoni qorayadi, mehrobdek qoshlarini eslaganida Farhodning qaddi yangi oydek egiladi, ki’rikklarini ko’z oldiga keltirganida esa sog’inch iztirobidan har bir tuki tikondek badaniga sanchiladi:

***Sochim fikrida tunlay aylasang ‘ech,
Qarorurmu jahoning tun kibi hech?***

*Qoshim mehrobini yod aylagan dam,
Yangi oydek bo'lurmi qomating xam?*

*Chu mijgonim g'amidin chiqsa xo'yung,
Bo'lurmu bir tikon har tora mo'yung?*

Shirin, garchi o'zi ham hijron iztirobida yashayotgan bo'lsa-da, sadoqatli va vafodor yor sifatida Farhodning holiga achinadi. Tog' yoki sahroda sargardon yurgan oshiqning yostig'i toshlar bo'lmaya'timikin, deya xavotirlanadi. Hamrohlari yovvoyi hayvonlar ekanligidan afsuslanadi. Shu bilan birga o'zini unutmasligini iltijo qiladi:

*Sharafdin bo'lg'on ermishsen Sulaymon,
Mening birla unutma ahdu 'aymon!*

*...Ne bo'lg'ay erdi charxi zulm 'esha,
Meni sendin judo qilmay hamisha*

*Xirooming chog'i yo'ldosh o'lsam erdi,
Sukuning vaqti qo'ldosh o'lsam erdi.*

Ammo muayyan davr va muhit ham, charxi kajraftorning ular boshiga solgan qismati ham oshiq-mahshuqlarning birga bo'lishlariga qarshi. O'z taqdirlari va baxt-saodatlari uchun kurashish uchun ularning qo'llari qisqalik qiladi. Buni maktub muallifi yaxshi anglaydi va hasratga to'ladi:

*Kishi gar ko'ksini yuz 'ora qilsun,
Falak bedodig'a ne chora qilsun?!*

*Aning bedodidin kim bo'lsa noshod,
Qilur jonig'a bedod uzra bedod.*

Alisher Navoiy Shirinning nomasi vositasida ijtimoiy muammoni ham ko'taradi. Shirin ham xuddi Layli singari turli cheklov va tazyiqlardan xoli emas. Farhod, har qalay, erkak kishi sifatida boshi oqqan tomonga ketishi, ochiq-oshkora dard chekishi, nola-fig'onlarini yashirmasligi mumkin. Ammo SHirin hayoli va iboli qiz sifatida o'z or-nomusini saqlashga majbur.

*Meni zoru zaifu ‘oshikasta,
Boshimdin to ayoq ahzo shikasta.*

*Ayog’ ostida qolsa notavon mo’r,
Ketursa qatlig’a yuz ajdaho zo’r.*

*CHu ul bo’lmish xaloyiq ‘oymoli,
Yuz ajdar changida bo’lg’ay ne holi.*

*...Anga biryon erur yuz muncha afsus,
Yana biryon hijobi nangu nomus...*

Shirinning bu nomasi Farhod Salosil qo’rg’onida mahbus etilgan, Arman o’lkasi Xisrav qo’shinlari tomonidan vayron etilgan, o’lganlar o’lib, qolganlar ham vahimada yashayotgan bir pallada yozilgan. Shirin nafaqat sevgilisidan judo etilgan qiz, balki mamlakat malikasi sifatida ham bu falokatlarga o’zini aybdor deb his qiladi. Uning nazarida dushman qo’l ostida ezilayotgan xalq bu ishlarda aybdor deb SHirinni qarg’ayotgandek tuyuladi.

*Bular elga mening ishqim ishidin,
Qulog’im yolqibon el qarg’ishidin.*

Noma so’ngida Shirin Farhod bilan ahyon-ahyon bo’lsa ham uchrashib turganida bunchalik g’am va kulfatlarni yenga olishi mumkinligini aytadi. Sevgilisiga salomatlik tilab, undan javob nomasi yo’llashni o’tinadi.

Ko’rinadiki, Alisher Navoiy birgina Shirinning nomasi orqali ham insoniy tuyg’ularni tarannum etadi, ham o’sha davr ijtimoiy hayotining realistik lavhalarini yaratishga muvaffaq bo’ladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida ham Alisher Navoiy o’zining umumlashma xulosalarini, hayotiy falsafalarini, g’oyaviy maqsadini Iskandarning o’z onasi Bonuga yozgan nomasi orqali yorqin ifodalashga muvaffaq bo’lgan. O’z qudrati va shonu shavkati bilan tirikligidayoq afsonaga aylanib ulgurgan Iskandar birdaniga dardga chalinib, og’ir ahvolda qoladi. So’ngi damlarda u onasini yodga oladi. Qog’oz va qalam keltirishlarini buyurib, noma-vasiyatini bayon etadi.

Iskandarning mazkur noma-vasiyatini dostonidan kelib chiqadigan umumlashma xulosalar sifatida ham qabul qilish mumkin. Shuningdek, maktub o'ziga xos kom'ozitsion tuzilishga ham ega bo'lib, uni asar ichidagi yana bir ixcham asar sifatida taassurot qoldiradi. Biz shartli ravishda nomalar mazmunini quyidagi bandlarga ajratdik:

- Nomaning kirish qismida butun borliqning yaratuvchisi Alloh taologa hamd-sano aytiladi. Faqat u abadiy, ugina jon va jismimiz ustidan hukm chiqara oladi. U istasa gadolarni shohlardan ustun qo'ya oladi. Binobarin, butun borliqning haqiqiy xojasi ul zotdir.

- Noma muallifi onaga murojaat qiladi. Jahonni zabt etish uchun aziz umrini sarflaganidan nadomat chekadi. Jahonga shohlik qilishdan ko'ra onaga qullik qilish afzal ekanligini anglab yetadi:

***Demon qilsam erdi o'g'ulluk sanga,
Qabul aylasam erdi qulluk sanga.***

***Sanga aylabon xoki dargohlik,
Aning otin etsam edi shohlik.***

- Iskandar onasining sovuq xabarni eshitgan paytdagi holatini tasavvur etar ekan, unga dalda berishga intiladi. Qazo - haq, ajaldan hech kim qutulgan emas. Ammo inson irodali bo'lishi lozim. Ammo onaning judolikka toqati yetmasligi mumkin. Shuning uchun Iskandar onasiga quyidagicha vasiyat qiladi. Unga ko'ra Bonu xaloyiqni yig'ib, dasturxon yozsin. Iltimos qilsinkim, kimning boshiga judolik tushmagan bo'lsa, o'sha birinchi bo'lib noz-nehmatlardan tanovvul qilsin. Ma'lumki, biror yaqinidan judo bo'lmagan hech kimsa yo'q. Zora bu ahvolni ko'rgan ona judolik azobidan taskin to'sa.

- Noma so'ngida Iskandar onasini el-yurtga g'amxo'rlik ko'rsatishga dahvat etadi, o'zining xatolarini boshqalar takrorlamasligini istaydi. Noma muallifi o'zini hamisha yod aylashlarini, unutmasliklarini istaydi:

***Bu o'lgan g'aribingni yod aylagil,
Duo birla ruhini shod aylagil.***

Badiiy asar tarkibida nomalardan foydalanish keyingi davrlarda ham davom etdi. Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi Otabek va Kumushlarning o’zaro yozishmalari ham romanning badiiyati va estetik ta’sirchanlik kuchini orttirganligi ma’lum. “Mehrobdan chayon” romanidagi Rahnoning Anvarga maktubi-nomasi mazmuni ham obrazlar munosabatidan tortib to ijtimoiy hayot manzaralarigacha badiiy idrok etishimizga katta yordam beradi. Demak, an’anaviy noma badiiy adabiyot taraqqiyotini tahlil etishda, yozuvchi uslubi, mahoratini belgilashda muhim rol o’ynaydi.

II BOB.

TADRIJIYLIK VA BADIYYAT

1-fasl. Ijtimoiy-falsafiy va g'oyaviy jihatlar

Har bir adib o'z davrining farzandi. U, eng avvalo, o'zi yashayotgan muhit bilan birga nafas oladi, hayotdagi voqea-hodisalardan ta'sirlanadi, ularni qalamga olar ekan, o'z dunyoqarashi, 'ozitsiyasida turib, munosabatini bildiradi. Shunday ekan, biz so'z san'atkorining estetik ideallari, g'oyaviy-falsafiy xulosalari, badiiy mahoratini tahlil etishda ana shu nuqtai nazardan yondashuvimiz kerak bo'ladi.

Har bir davr insoniyat tarixining uzviy xalqasi. Shu bilan birga hayot doimo yangilanishlar sari yuz buradi, jamiyat taraqqiyotini esa turli o'zgarishlar belgilaydi. Ana shu jamiyatning tarkibiy qismi bo'lgan inson taqdiri, uning xarakteri, ma'naviy-ruhiy olamida ham xuddi ijtimoiy turmushda bo'lgani singari evrilishlar ro'y beradi. Kishilar zamona zayliga bo'ysunganlari singari davr va muhitni o'zgartirishga ham muayyan ta'sirini o'tkazadilar. Qadim zamonlardan an'ana bo'lib kelgan ezgulik va yovuzlik, olijanoblik va tubanlik, elparvarlik va xudbinlik o'rtasidagi ayovsiz kurash, taraqqiyot omili bo'lgan ezgulikning zafar qozonishi insoniyatni yangi baxt-saodatlar sari yetaklaydi.

Noma insoniy muloqotning ixcham va ta'sirchan shakllaridan biridir. Unda xat yozuvchi bilan birga xatni oluvchining qalbi, kayfiyati, orzu- armonlari aks etadi. Maktub, xat, noma insonning dil rozlari ifodasidir. Shuning uchun ham qadimdan katta e'tiborga sazovor bo'lgan. Nomalar kim tomonidan kimga yozilishi, qanday munosabatlarga daxldorligi va nima maqsadda bitilganiga qarab turlicha mazmunda bo'lishi tabiiy. Shuningdek, noma bitayotgan kishi kimga noma yo'llayotganligi, nomani o'qiguvchining ijtimoiy hayotdagi o'rni, saviyasi va o'ziga bo'lgan munosabatini ham nazardan qochirmasligi lozim bo'ladi.

Alisher Navoiyning “Munshaot” deb nomlanuvchi maktublari to’lamidagi namunalarni ko’zdan kechirganimizda ham biz so’z yuritayotgan mavzuga aloqador jihatlarni ilg’ash mumkin: Jomiya yozilgan xatlarda sadoqatli shogird va maslakdosh do’stning cheksiz ehtiromi, yaqinlari va shogirdlariga yo’llagan maktublarida mehr-muhabbat, Husayn Boyqaroga bitilgan insholarda esa tobelik va tavoze ruhi ko’zga tashlanib turadi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida inisi Darvesh Aliga maxsus qism ajratgan. Ushbu qism mazmun-mohiyatiga ko’ra biz so’z yuritayotgan noma janri talablariga to’la hamohangdir. Unda muallif ukasiga nasihat qilar ekan, Husayn Boyqaro amrlarini so’zsiz bajarishga, uni Olloh va payg’ambardan keyingi zot deb bilishga, hamisha adab shartlarini saqlashga dahvat etadi. Aks holda o’z oyog’iga o’zi bolta urishi mumkinligidan ogoh etadi.

...Xudovu Rasul amri to’qach kamol,

Valinehmat (ya’ni Husayn Boyqaro) amrig’a qil ishtig’ol.

...Menga so’z yozardek anga yozmag’il,

Nishoting binosin tubin qozmag’il.

Ya’ni, Alisher Navoiy Darvesh Alini ogohlantirib, hukmdorga xat yozayotganida odob va rasmiyat doirasidan chiqmaslikni uqtiradi, aks holda o’z baxti va umriga zavol keltirishi mumkinligidan ogohlantiradi. Navoiyning hatto noma-maktub borasida ham bunchalik tashvishlanayotgani sababini “Boburnoma”ni o’qiganimizda tushunib yetamiz. Undan ma’lum bo’lishicha, Darvesh Ali tabiatan bosiq va vazmin bo’lmagan, qolaversa, yuqori mansablarga ham akasi Alisher Navoiyning hurmati yuzasidan ko’tarilgan.

Ammo qayd etilgan mulohazalardan Alisher Navoiy ma’lum ma’noda zamonasoz bo’lgan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Ulug’ shoir va mutafakkir so’zda ham, amaliy faoliyatda ham haqiqat va adolat uchun kurashganligi, jamiyat va davlat ishlariga naf keltirmaydigan qarorlar qabul qilganida Husayn Boyqaroga to’qqiz martagacha ehtiroz bildirish huquqiga ega bo’lganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham, adabiy masalalarda ham kamchilik va nuqsonlarga murossasiz bo’lganligi tarixiy manbalardan ma’lum.

SHuningdek, istehdodli temuriylardan bo'lgan, ikki tilda ajoyib she'rlar yozgan o's'irin Mo'min Mirzo bobosi Husayn Boyqaro farmoni bilan qatl etilgach, Navoiy g'oyat ta'sirlanib, hatto o'zi butun umr ravnaqi uchun kurashgan saltanatning tez orada tanazzulga uchrashini bashorat qilganligini ham zamondoshlari yozib ketganlar. Shoirning Husayn Boyqaroga yozgan maktublarida ham uni ogohlik va hushyorlikka dahvat etishi, ichkilikbozlikdan tiyilishi lozimligini uqtirishi, maktab va madrasalarda yoshlarning o'qib, bilim olishlariga davlat homiylik qilishi lozimligini hamisha eslatishi noma-maktublar ijtimoiy-siyosiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy Abusaid mirzo davrida Hirotidan Samarqandga surgun qilinar ekan, eng yaqin kishilaridan biri bo'lgan Sayyid Hasan Ardasher bilan xayrlashgani boradi. Afsuski, bu paytda Sayyid Hasan uyida yo'q ekan. Yosh Alisher unga xayrlashuv noma-maktubini she'riy yo'l bilan yozib qoldirishga va shoshilinch yo'lga tushishga majbur bo'ladi.

Shoir do'sti va ustози Sayyid Hasan Ardasherга yozgan ana shu she'riy maktubida so'z qanchalar ta'sirchan va dilkash bo'lsa-da, she'rga solinsa yanada jilolanishini uqtirar ekan:

Javohir necha xo'bu dilkash durur,

Vale nazm silki aro xush durur

deya bejiz tahkidlamagan edi.

Sharq adabiyoti tarixida o'nlab ijodkorlar maktub-manzuma yoki she'riy xat janrida qalam tebratganlari ma'lum. Ko'plab qalam sohiblari ushbu janrga qo'l urib, hayot voqeligi va ko'ngil kechinmalarini o'ziga xos yo'sinda badiiy talqin qilishga uringanlar. Ammo barcha qalam sohiblari ham ko'ngil kechinmalarini qog'ozga tushirishda, umuman, badiiy ijodda Navoiy ko'tarilgan yuksaklikka ko'tarila olmaganlar.

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarida Alisher Navoiy ustози va murabbiysi bo'lgan Sayyid Hasanning o'zini faqr tariqatiga dahvat qilish bilan birga badiiy ijod bilan muttasil va muntazam shug'ullanishga targ'ib etganligini

qayd etadi: “Va bu faqirni faqr tariqig’a dalolat va irshod qilurlar erdi va nazm ayturg’a targ’ib ko’rguzurlar erdi.”

***Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur,***

***Falak ko’rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire...***

Yuqoridagi misralar Alisher Navoiyning ustози va murabbiysi, eng yaqin hammaslak do’stlaridan biri bo’lgan Sayyid Hasan Ardasherга bag’ishlab yozilgan she’riy nomasidan o’rin olgan. Abusaid mirzo Hirot taxtini egallaganida o’z davrining ko’plab nodir istehdodli kishilari qatl etiladi yoki quvg’inga uchraydi. 17-18 yoshlardagi Alisher ham Samarqand shahriga surgun qilinadi. Yosh shoir ona shahridan jo’nab ketar ekan ko’nglini ranjitgan voqealar, hayotiga xavf solgan tahdidlar, yurtidan ketish sabablari bilan bir qatorda o’zining qadr to’mayotganligi, yorqin istehdodini hech kim qo’llab-quvvatlamayotganligini ham she’riy tarzda Sayyid Hasan Ardasherга bayon etadi. Chunki Sayyid Hasan yosh shoirning dalda beruvchisi, ilhomlantiruvchisi, kerak bo’lsa, himoyachisi edi: “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da Navoiyning quyidagi ehtirofi ham buni tasdiqlaydi: “Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar dag’i iltifot qilib, bahzi abyotni (Navoiy she’rlarini) ko’p o’qurlar erdi. Ul jumladin bu matlahdurkim, fard:

***Furqatingdin zahfaron uzra to’karmen lolalar,
Lolalar ermaski bag’rimdin erur ‘argolalar.’”¹¹***

Eng muhimi, o’smir Navoiyning Sayyid Hasanga yozgan she’riy nomasidan hali yosh bo’lishiga qaramasdan allaqachon shuhrat qozongan shoirning adabiyot, ijodga oid g’oyat muhim ilmiy-nazariy qarashlari ham o’rin olgan.

Shoirning bir tomondan faxr, ikkinchi tomondan alam bilan aytgan bu so’zlarida hayotiy haqiqat bor. Chunki hayot voqealarini, turli shaxslarni yaqindan o’rganish, ular hayoti va faoliyatidan eng muhim qirralarni ochish, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo’lganlarini saralab olish g’oyat murakkab vazifadir.

¹¹ Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Асарлар. 14-жилд. 77-бет.

Alisher Navoiyning she'riy nomasi ikki yaqin kishining o'zaro muloqotigina emas. Unda o'rta asrlar adabiy muhiti, jarayoni, ijtimoiy-siyosiy holat singari masalalarga oid muhim qaydlar ham o'rin olgan. Chunonchi, Alisher Navoiy o'smirlik yillaridayoq Sharq adabiyotining ulug' namoyandalari Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy kabi siymolarning eng yaxshi an'alarini 'uxta o'zlashtirib olgan edi, deyishga to'la asos bor. Chunki u Hirotidan Samarqandga tahsil uchun (ayrim manbalarda surgun qilinib) ketayotganda eng yaqin kishilaridan bo'lgan Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she'riy nomasida shunday satrlarni bitgan edi:

***Ne nazme der ersam meni dardnok –
Ki har lafzi bo'lg'ay aning durri pok.***

***Yetar tengridin oncha quvvat manga,
Ki bo'lmas bitiriga fursat manga.***

Yosh Alisher ushbu maktub-masnaviysida Firdavsiy va Nizomiylarning so'z san'atidagi xizmatlariga yuksak baho beradi. Ular an'anasini davom ettira bilish har kimga ham nasib qilavermasligini uqtiradi. Bu buyuk zotlar "Shohnoma", "Panj Ganj" singari shoh asarlarini yaratish uchun o'ttiz-qirq yillab umrlarini sarf etganliklarini qayd etadi. SHu bilan birga, o'zining istehdodi hamda imkoniyatlariga baho berar ekan, agar fursat va sharoitim bo'lganda ular o'ttiz yilda yozgan asarlarini men o'ttiz oyda yozgan bo'lar edim, degan xulosaga keladi:

***...Ani derga bo'lsa qachon rag'batim
Erur oncha haq lutfidin quvvatim.***

***Ki har necha nutq o'lsa kohil saroy,
Bitigaymen o'ttuz yilin o'ttuz oy.***

Afsuski, o'sha muhit va davrda chaqmoqdek yarqirab turgan bu talant egasi hech kimning e'tiborini tortmaydi, unga na imkon yaratiladi, na rag'bat ko'rsatiladi:

***Vale ayt, deb kim manga tutti yuz,
Ki man yuz uchun demadim ikki yuz...***

Tabiiyki, yosh Alisherning bunday jurhat va matonati atrofdagilarga erish tuyulgan, kulgi va mazax qilingan. Buni biz yaqinda to'ilib, prof. Suyima

G'aniyeva tomonidan nashrga tayyorlangan Husayn Boyqaroning "Devon. Risola" asar orqali bilib olamiz. Unda Navoiyning bolalik do'sti bo'lgan Husayn Boyqaro ham yuqorida keltirilgan misralar haqida ga'irar ekan, "odamlar bu so'zlarni bolalik maqtanchoqligi deb o'ylashgan edi. Lekin yillar o'tib, Alisher Navoiy o'z so'zining ustidan chiqdi va aytilgan muddatda "Xamsa"dek ulug'vor asarni yozib tugalladi", deydi.¹²

Gap shundaki, Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan she'riy nomasidagi ilmiy-nazariy, adabiy-tanqidiy qarashlari bir umr takomillashib, rivojlanib bordi.

Noma va uning ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy-tarbiyaviy xususiyatlari haqida gap ketganda Zahiriddin Muhammad Boburning o'z o'g'li Humoyunga yo'llagan xati alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, Humoyun Kobulda 913 hijriy yilda – 1506 melodiy yilda tug'ilib, harbiy va siyosiy tarbiya to'di. O'z davri ilmlarini o'rgandi. Otasi Hindistonga yurish boshlaganda uning o'ng qo'li bo'ldi. Bobur avval uni Lohur hokimi yordam so'raganda 'anjobga jo'natdi. Lekin Lohur hokimi bergan vahdasining ustidan chiqmaganligi sababli Bobur o'g'lining izidan borib, Hindga kiradi. Dehlida o'rmashib olishgandan keyin, Humoyun Agraga yo'l olib, uni egallaydi. Shunday qilib, otasining zamonasida muzaffar sarkarda bo'lib yetishadi. Keyinchalik otasi kasal bo'lib, uning dardi zo'rayganda podshohlikni o'g'liga to'shirib, ukalari bilan yaxshi muomalada bo'lishni va shu bilan birga g'ofil bo'lmaslikni vasiyat qildi. "Boburnoma"da ana voqealar tafsilotlari bilan birga yuqorida tilga olingan noma-maktub ham o'rin olgan. Bu noma-maktubda mehribon va donishmand otaning o'z jigarbandiga chin dildan, samimiy munosabatlari, istak va orzulari, shafqat hamda marhamatlari aks etgan. Noma-maktubning mazmunini quyidagicha tasnif etish mumkin: 1. Donishmand va kuyunchak, mehribon va g'amxo'r otaning dil so'zlari: "Humoyunga mushtoqliklar bilan sog'inib salom degach, so'z ulkim, dushanba kuni rabiul avval oyining o'nida Bekkina bila Bayonshoh keldilar. Xatlardin va

¹² Хусайн Бойқаро. Девон. Рисола. Тошкент. 1967 йил. (Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева).

arzadoshtlardin ul yuzdagi, bu yuzdagi kayfiyat va holot mushaxxas va ma'lum bo'ldi.

Shukr, bermish senga Haq farzande,

Sanga farzandu manga dilbande.

Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro'zi qilg'ay, omin yo rabbil olamin. Otini Alhomon qo'ymishsen. Tengi muborak qilg'ay. Vale bovujudkim, o'zung bilgaysen, mundin g'ofil bo'lubsenkim, kasrati istihmol bila avom (oddiy xalq) Alamo derlar, yo El Omon derlar, o'zga mundoq alif-lom otta kam bo'lur. Tengi otini va zotini farxunda va muborak qilg'ay, manga va sanga ko'p yillar va bisyor qarnlar. Alhomonni davlat va saodat bila tuta bergay."

2. Noma-maktub muallifi jahongir shoh va jangchi-sarkarda sifatida namoyon bo'ladi: "Tengi taolo o'z fazlu karami bila bizning ishimizni yasaydur. Mundoq qo'u qarlarda to'ilmas. Yana seshanba kuni oyning o'n birida arojif xabar keldikim, Balx eli Qurbonni tilab, Balxqa kiyurmishdar.

Yana Komrong'a, Kobuldagi beklarga farmon bo'ldikim, borib, sanga qo'shulub, Hisor yo Samarqand yo har sorig'akim salohi davlat bo'lsa, yurugaysiz. Tangrining inoyati bila yog'iy (dushman)larni bosib, viloyatlarni olib, do'stlarni shod, dushmanlarni nigunsor qilg'aysiz, inshoollohu taolo. Sizlarning jon tortib, qilich cho'moq mahallaringizdur. Qo'uda kelgan ishni taqsir qilmangiz (qulay fursatni boy bermanglar). ...Agar tengri inoyati bila Balx va Hisor viloyati muyassar va musaxxar bo'lsa, Hisorda sening kishing bo'lsun, Balxta Komronning kishisi bo'lsun. Agar tengri inoyati bila Samarqand ham musaxxar bo'lsa, Samarqandta sen o'lturg'il. Hisor viloyatini inshoolloh xolisa qilg'umdir..."

3. Bobur o'z maktubida mamlakat tinchligini o'ylovchi, turli nizolarning oldini olishga harakat qiluvchi siyosatchi sifatida quyidagilarni yozadi: "Agar Komron Balxni ozirg'ansa (ko'ngli to'lmasa) arzadosht qiling (xabar qilinglar), inshoolloh aning qusurini (yetmagan joylarini) o'shal viloyatlardin-o'q rost qilg'umizdur (to'ldiramiz).

Yana sen o'zung bilur edingkim, doim bu qoida marhiy edi: olti hissa sanga bo'lsa, besh hissa Koironga bo'lur edi. Hamisha bu qoidani marhiy tutub, mundin tajovuz qilmang. Yana ining bilan yaxshi maosh (muomala) qilgaysen. Ulug'lar ko'tarimlik kerak (kattalar kechirimli bo'lishi lozim), umidim borkim, sen ham yaxshi ixtilot qilgaysen. Aning ham mutasharrih va yaxshi yigit qo'yubtur (Komron ukang ham qoidaga amal qiluvchi, yaxshi yigit bo'libdi) ul ham mulozamat va yakjihatlikta taqdir qilmagay."

4. Bobur o'z noma-maktubida mahrifat'arvar sifatida namoyon bo'ladi "...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsan va (ammo) o'qumaysan (o'zing o'qib ko'rmagansan), ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quyolmas eding. O'quyolmagandin so'ng albatta tag'yir berur eding (xatolarini tuzatgan bo'lar eding). Xatingni xud tashvish bila o'qusa bo'ladur, vale asru mug'laq(tushunarsiz)dur. Nasri muammo hech kim ko'rgon emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni "to" bila bitibsen. Qulunjni "yo" bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mavhum bo'lmaydur. Takalluf qilay deysan, ul jihattin mug'laq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qiguvchiga."

5. Noma-maktub yozilgan paytlarda Bobur malika Bayda bergan zahar tufayli salomatligini ancha yo'qotgan edi. Buning ustiga tirikligida taxtni Humoyunga to'shirib, faqat ijodiy ishlar bilan shug'ullanish niyati bo'lgan. Shuning uchun ham xatning oxirgi qismi xuddi vasiyat singari yozilgan: "Yana ulug' ish ustiga borasen, ish ko'rgan, ray va tadbirlik beklar bila kengashib, alarning so'zi bilan amal qilgaysen."

Agar mening roziligimni tilarsen, xilvatninishlikni va el bila kam ixtilotlilikni bartaraf qilg'il (odamlar orasida bo'lgin). Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlariga qo'ymay, qoshinga chorlab, har maslahat bo'lsa kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so'z-unga qaror bergaysen.

Yana Xoja Kalon mening bila gustoxona ixtilot qila (o'zini erkin tutib) o'rganib edi. Sen dog'i, nechukkim, Xoja Kalon bila ixtilot qilur edim, o'shundoq

ixtilot qilgaysen. Tengri inoyati bila ul sorilar ish ozroq bo'lsa, Komronga ehtiyoj bo'lmasa, Komron Balxta mazbut kishilarni qo'yub, o'zi mening qoshimga kelsun.

Yana muncha fath va zafarlar Kobulda ekanda bo'ldi, Kobulni shugun tutubturmen, ani xolisa qildim (o'zimning ixtiyorimda qoldirdim). Hech qaysingiz tahma qilmag'aysiz..."

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining eng muhim noma-maktublarini "Boburnoma"ga kiritgan. Bolalik do'sti, keyinchalik davlat va jamoat arbobi bo'lib yetishgan Kalonshohga yozgan noma-maktublarida sirdosh sifatida o'zini qiynagan dardlarini to'kib soladi. Yoki taslim bo'lishni istamayotgan Hindiston rojalaridan biriga yo'llagan noma-maktubida muallif keskin xarakterli shoh va sarkarda sifatida namoyon bo'ladi. Bunga o'xshash misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ham noma-maktublarning o'rnini juda muhim. Xususan Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning rafiqasi Zarifa Saidnosirova "Oybegim mening" nomli xotira kitobida ulug' adibning o'nlab maktublarini keltirgan. Bu noma-maktublar orqali biz Oybek shaxsi, u yashagan davr va muhit, o'zaro munosabatlar haqida keng va atroflicha tasavvurga ega bo'lamiz.

2-fasl. Badiiy-estetik xususiyatlar

Xat, maktublar o'zining ilk yozma aloqa vositasi funksiyasini davrlar o'tishi bilan kengaytira bordi. Dastlab oddiy xabarlashuv, so'ngra individual-intim munosabatlar, keyinroq ijtimoiy falsafiy ruh kasb eta bordi. Bora-bora hududiy qamrovi ham kengayib, mamlakatlararo di'lomatik munosabatlarning ham asosiy vositasiga aylandi. Shu bilan bir qatorda dastlab badiiy adabiyot namunalarining tarkibiy qismiga, bora-bora mustaqil janr ko'rinishiga ham ega bo'ldi. Tadrijiy taraqqiyot davomida badiiy bo'yoq, estetik ta'sirchanlik kuchiga alohida e'tibor berila boshlandi. Masalan, Yusuf Amiriy o'z nomalarining maktubga xos shakl va mazmunini ham saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Noma janrining oldingi fasllardagi bayonidan shu narsa ravshan ko'rinadiki, Yusuf Amiriy garchi o'zbek adabiyotida o'zigacha Xorazmiy, so'ng zamondoshlari Xo'jandiy va Sayyid Ahmad tomonidan davom ettirilgan nomachilik an'anasiga amal qilgan bo'lsa ham, ijodkor shoir sifatida bu an'anani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan, lirik tavsiflarga nisbatan epik holatlarni kuchaytirish yo'lini tutgan. Natijada "Dahnoma" boshdan oyoq syujet chizig'iga, qahramonlar silsilasiga ega bo'lgan epik doston xarakterini kasb etadi. Kitobxon bu asarni o'qiganida uning ko'z o'ngida oshiqning ma'shuqa bilan uchrashuvi, ularning o'zaro suhbatlashuvi, oshiq qalbida sevgi tug'yon urishi, ma'shuqaga noma yo'llashi, bu nomani o'qigan ma'shuqaning kayfiyati, oshiqqa g'azab va itob bilan javob nomasi yozishi, har bir nomaning mazmunidan oshiq yoki ma'shuqaning qalbida yuz bergan ruhiy g'alayonlar butun tafsiloti bilan namoyon bo'ladi.

Oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi nomalar asar qahramonlarining xarakterlarini, ularning hayotga, insonga bo'lgan munosabatlarini, fehl-atvorlarini, ma'naviy olamini ochishda muhim bir vosita vazifasini bajaradi.

Yusuf Amiriyning “Dahnoma”si Sharq adabiyotining an’anaviy sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan bo’lib, unda tasvirlangan voqea-hodisalar fonida sevgi va muhabbat, vafo va vafodorlik, halollik, rostgo’ylik, sabot, matonat, turmush hamda oila munosabatlari kabi masalalar ushbu ajoyib asarning g’oyaviy motivlari silsilasini tashkil etadi. “Dahnoma” asosan, nomalardan tashkil topganligi ham undagi obrazlar qiyofasi, xarakter xususiyatlari shu asarning o’ziga xos jihatlari doirasida aks etadi.

Asardagi oshiq obrazi chin sevgiga ega bo’lgan inson, kamtarin hamda sadoqatli yigit, iztirob va sinovlarni yengib o’tish orqaligina ma’shuqa visoliga yetish mumkinligini his etadi. SHuning uchun ham ma’shuqaning dastlabki g’azabli nomasidan tushkunlikka tushmaydi. Aksincha, o’z sevgisiga fidoyiligini qayta-qayta tahkidlaydi.

Asarda bir qadar keng va atroflicha tasvir etilgan qahramonlardan biri ma’shuqa obrazidir. Bu obraz Amiriygacha ham mumtoz adabiyotimizning ilg’or vakillari ijodida xilma-xil ko’rinishlarda hayotiy go’zallik timsoli sifatida talqin etilgan. So’z san’atkorlari ma’shuqa go’zalligi talqinida hayot go’zalligini, ma’shuqaga bo’lgan muhabbat vositasida insonning hayotga bo’lgan muhabbatini ifodalaganlar.

Asar bosh qahramonlaridan bo’lgan ma’shuqa beqiyos go’zalligi bilan birga so’zga chechan, hozirjavob, aqlli qiz. U hayotga aql-zakovat va fahm-farosat bilan qaraydi. U oshiqning ishq sinovlariga bardoshini sinash maqsadida

Tamanno qil vale o’zungga loyiq,

Tomosho qil vale ko’zungga loyiq –

deydi. Ma’shuqa obrazining xarakteri, xususan, oshiqqa bo’lgan munosabati voqealar jarayonida o’zgarib, rivojlanib boradi.

Shuni aytish kerakki, Amiriy o’z asarida ma’shuqa obrazini salaflardan farqli o’laroq faol obrazga aylantirgan. U voqealar davomida o’z xatti-harakatlari, fikr-mulohazalari, qarashlari bilan faol qatnashadi. Shuning uchun ham bu obrazda tavsifiy xarakterlar emas, ko’proq hayotiy, insoniy xarakter va fazilatlar o’z ifodasini topgan.

Asarda Oshiq, Ma'shuqa, Sabo obrazlaridan tashqari "Birov", "Hamroz", "Xoja" obrazlari ham mavjud. Ammo ular asarda biror aniq funktsiyani bajarmaydilar. Shunday qilib, nomadagi g'oyaviy motivlarni ifodalashda asardagi obrazlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning epiklik xususiyatini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Mumtoz she'riyatda, xususan, noma janrida ham badiiy tasvir vositalari katta o'rin tutadi. Badiiy tasvir vositalari deyilganda, avvalo, she'riy san'atlar nazarda tutiladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda bu **ilmi badih** deb ham yuritiladi. She'riy san'atlar asar jozibasini ko'rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qilishi kerak. Noma janrida qalam tebratgan Xorazmiy, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Sayyid Ahmad singari so'z san'atkorlari o'z asarlarida irsolul masal, tashbeh, mubolag'a, tazod, tanosub, tarseh, kitobat, mubolag'a kabi badiiy san'atlardan o'rinli foydalanganlar. Ular lirik obrazlar, xususan, ma'shuqa tasvirida, uning 'ortretini yaratishda xilma-xil o'xshatishlar, qiyoslashlar, laff va nashr usullari, jonlantirish va boshqa tasvir vositalarini ham san'atkorona qo'llaganlar.

Kishi birovdan jafo ko'rsa, odatda unga jafo bilan javob beradi, hech bo'lmaganda indamay uni tark etadi. Lekin oshiq ma'shuqaning jafosiga nisbatan o'ziga qilingan munosabatning ziddini – vafodorlikni ko'rsatadi. Bu bilan, birinchidan, o'zining vafosi oldidagi yorning jafosini bo'rttirsa, ikkinchidan, yor jafosi orqali o'zining vafosini tahkidlamoqda. Demak, **tazod**ni hosil qilayotgan so'zlar baytdagi ikki obraz – oshiq va ma'shuqaning xarakter xususiyatlarini yorqin aks ettirishga xizmat qilgan:

Qachonkim shod esang, g'amgina rahm et,

Agar sulton esang, miskina rahm et.

Tazod san'atiga yana bir go'zal misol:

Qaro meng ol yanoqingqa yaroshur,

Boshim doim ayoqinga yaroshur.

Karashma birla oshiq o'ltirursiz,

Siz o'lturgan kishi o'lgaymu hargiz.

Mumtoz she'riy namunalar orasida boshdan-oyoq bitta she'riy san'at asosiga qurilganlari ham uchraydi. Qarshilantirish asosida lirik qahramonning kechinmalari, lirik obrazning ruhiy holati yanada yorqinroq, yanada ta'sirchanroq ko'rinishga ega bo'ladi.

Tajnis san'ati ham mumtoz she'riyatimizda ko'p qo'llanadigan, ijodkorning mahorati, til boyliklarini egallash darajasi va hozirjavobligini belgilovchi badiiy san'atdir. Ayniqsa, tajnis san'ati asosida yaratiladigan, faqat turkiy she'riyatgagina xos bo'lgan tuyuq janridagi she'rlar o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi, badiiy tafakkuri rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

(qil – sochning qili, qil – qilmoq fehli)

...Oshar yeldin sening yelganda oting,

Quyosh yanglig' jahonni tutti oting.

(Ot – hayvon, ot – nom)

Agar desam seni Rustam yarorsen,

Qiliching birla saflarni yarorsen.

(Yarorsen – yaraysan, yarorsen – yorasan).

Muhabbatni tug'ar ming turli asror,

Ko'ngul asrorini jon birla asror.

(Asror – sirlar, asror – asraydi).

Tajnisni unga yaqin bo'lgan **iyhom** san'ati bilan birga tushuntirish yaxshi samara beradi. Chunki iyhom ko'zga yaqqol tashlanmasa-da, u ham omonimlikka asoslanadigan san'atdir. Tajnisda omonimlikni tashkil qilayotgan so'zlar ishtirok etib, baravar ko'rinib tursa, iyhomda ularning biri qo'llanib, ikkinchisi yashirin keladi. Uni to'ish, his qilish, she'rxonning badiiy didi, saviyasi va zukkoligiga ham bog'liq.

Iyhom orqali ifodalanayotgan fikrlar bir-birini inkor etmasligi, aksincha, ular biri ikkinchisini to'ldirishi, hatto birgalikda yanada kengroq mazmunni ifodalashi mumkin.

*Seni ko'rgn rux o'zindin yot bo'lur,
Ruxungni ko'rsa ming shah mot bo'lur.*
(rux – yuz, rux – shaxmat ruxi)

Tajohuli orifona (bilib bilmaslikka olish) san'ati ham mumtoz she'riyatda keng qo'llaniladi. Bu san'atni anglab yetishimizda tilshunoslikda ritorik so'roq ga'lar bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarimiz yordamga keladi. “Men qaerdan bilay?”, “Shunday emasmi?” singari ga' va so'z birikmalari zamiridagi javobi aniq tushunchalar tajohuli orif san'atiga yaqin turadi. Demak, ushbu badiiy san'atning tahrifi quyidagicha: “Tajohuli orif - badiiy matnda mantiqiy urg'u berish, tahkidlash maqsadida fikrni ritorik ga' shaklida qo'llash, bilib turib o'zini bilmaslikka solish san'atidir.”

*Ayit, mendinkim ul miskin erur oh,
Qachon engay gadoning evina shoh.*

Talmeh san'ati lirik qahramonning o'z holatini yorqinroq ifodalash uchun tarixiy, afsonaviy shaxslar yoki badiiy obrazlarni “yordamga” chaqirishidir.

*Qamuq ko'rkluklar uzra podshosen,
Masih anfosliq, Yusufliqosen.*

Yoki:

*O'g'on Yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kimiyosin bizga berdi.
So'zung Shirin, o'zung Xisravdin afzun,
Bo'lur Layli sening husnunga Majnun.*

“Muhabbatnoma” muallifi yor vasfi va oshiq kechinmalari tasvirida, shuningdek, jonlantirish, tashxis, mubolag'a kabi usullardan, xilma-xil badiiy vositalardan mohirlik bilan foydalanadi, original obrazlar yaratadi, ayrim an'anaviy obrazlarga yangicha tus beradi. Yuqorida keltirilgan misol va namunalar Xorazmiyning “Muhabbatnoma” mazmuniga muvofiq badiiy shakl yarata olganini va turli xil usul hamda badiiy vositalardan foydalanib, asarning g'oyaviy-badiiy, falsafiy-estetik qimmatini oshirganini ko'rsatadi.

XX asrgacha bo'lgan o'zbek adabiyotida she'riyat asosiy yetakchi adabiy tur bo'lganligi tufayli mumtoz namunalarning katta qismini ham lirik asarlar tashkil etadi. Shu ma'noda Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari misolida nomachilikning janr xususiyatlari haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Eng avvalo bu janrning birinchi o'ziga xos xususiyati noma asarlarining vasf xarakteriga ega bo'lgan ishqiy nomalar maktublar asosida qurilganligidir. Bundan tashqari nomalarda yorning mubolag'aviy tavsifi katta o'rin egallaydi. Bu jihatdan u g'azal janriga ham yaqin turadi. Unda yorning beqiyos go'zalligi tahrifi, oshiqning ma'shuqa hajrida chekkan iztiroblari, ma'shuqaning be'arvoligi, zamondan shikoyat ohanglari uchraydi

Ko'rinadiki, ushbu lirik janrning imkoniyat doirasi, maktublarning bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlari, uslubiy jihatlari, lirik obrazlar masalasi, g'oyaviy-falsafiy xususiyatlarini tahlil etish, tushuntirish talab etiladi.

Bir qarashda g'azalda ham, nomada ham obraz yaratish usuli bir xildek ko'rinadi. Masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, bu ikki adabiy janr orasidagi farqli tomonlarni ham ilg'ab olish mumkin. G'azalda ham oshiqning ma'shuqaga bo'lgan sevgi iztiroblari, ma'shuqaning beqiyos go'zal obrazi, bevafoardan shikoyat lirik tarzda ifodalanadi. Lekin g'azalning ma'lum chegarasi mavjud.

Nomada esa oshiq va ma'shuqa obrazlari o'rtasidagi munosabatlar asosiy o'ringa ega bo'lib, ularning keng qamrovli ruhiy kechinmalari lirik tarzda masnaviy yo'li bilan ifodalanadi va muallif nomalarda his-tuyg'u, kechinmalar tasvirida g'azal, masnaviy, fard, qit'a kabi janrlarga ham murojaat qilishi mumkin. Ko'rinadiki, noma janrida g'azal janriga nisbatan obraz yaratish manbalari va imkoniyatlari keng hamda chegarasiz.

"Muhabbatnoma"ning umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyliги muallifni o'z davri an'analaridan yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. Ulug' shoir ko'plab salaflari, zamondoshlaridan farqli ravishda, lirik obrazlarning tashqi portretiga oro beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, shoir

yaratgan lirik obrazlar muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar va she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylandilar. Darhaqiqat, ushbu asar davrlar o'tishi bilan kitobxonlar qalbidan tobora chuqurroq o'rin egallab bormoqda va o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirdi. Xo'jandiyning "Latofatnoma"si, Amiriyning "Dahnoma"si, Sayyid Ahmad ibn Mironshohning "Taashshuqnoma"si bevosita "Muhabbatnoma"ning samarali ta'siri bilan vujudga kelgan. "Latofatnoma" muallifi bo'lgan Xo'jandiy "Muhabbatnoma" va shoir Xorazmiy haqida quyidagilarni yozgan edi:

***Muhabbat jomidin ichsang sharobe,
"Muhabbatnoma"ga aysang javobe.***

***...Xo'jandiy so'zlaring Xorazmiy miskin
Eshitsa: "Balli!" – deb qilg'aydi tahsin.***

Bundan tashqari noma janridagi asarlarda tabiat tasviridan o'rinli foydalanish va bu tasvirning oshiq yoki ma'shuqaning ruhiy kechinmalari, holatlari bilan bog'liq holda olib borish hollari ko'rinadi. Noma janrida yaratilgan asarlar tarkibida g'azallar, qasida, masnaviy, qit'a, fard, soqiynoma, hikoyat singari janrlarni, tabiat manzaralari tasviri, xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan maqol, matal, hikmatli so'zlarni singdira olishi bilan xarakterlanadi. Ana shu xususiyatlarni hamisha yodda tutish mumtoz adabiyotimiz namunalaridan, xususan, noma janrida yaratilgan asarlardan to'laqonli bahra olishimizga sabab bo'ladi.

Mumtoz so'z san'atkorlari badiiy ijodga qo'l urib, lirik obrazlar yaratayotganlarida ularga turli tabaqalar vakillarining psixologiyasi, turish-turmushini yaxshi bilganliklari qo'l keladi. Natijada lirik obraz va xarakterlar hayotiyliigi, qo'llangan poetik san'atlarning tabiiyligi tahminlanadi. Bunda shoir mavjud voqelik, unda yashab turgan odamlarning qarashlari, ma'naviyati, saviyasi va qiziqishlariga suyanadi. Shu zaylda davr va sharoitga qarab, poetik obrazlar mundarijasi o'zgarib, boyib boradi yoki bahzilari o'rnini boshqalari egallaydi. Demak shoir yaratgan obrazlar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy, ruhiy-ma'naviy masalalarining ko'zgusi ham hisoblanadi. Shu tariqa shoirning lirik obrazlari tizimi

ham tobora kengaydi. Bunday lirik obrazlar zimmasiga yuklanadigan vazifalar salmog'i ham ortib bordi.

Bir qarashda g'azalda ham, nomada ham obraz yaratish usuli bir xildek ko'rinadi. Masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, bu ikki adabiy janr orasidagi farqli tomonlarni ham ilg'ab olish mumkin. G'azalda ham oshiqning ma'shuqaga bo'lgan sevgi iztiroblari, ma'shuqaning beqiyos go'zal obrazi, bevafoardan shikoyat lirik tarzda ifodalanadi. Lekin g'azalning ma'lum chegarasi mavjud.

Nomada esa oshiq va ma'shuqa obrazlari o'rtasidagi munosabatlar asosiy o'ringa ega bo'lib, ularning keng qamrovli ruhiy kechinmalari lirik tarzda masnaviy yo'li bilan ifodalanadi va muallif nomalarda his-tuyg'u, kechinmalar tasvirida g'azal, masnaviy, fard, qit'a kabi janrlarga ham murojaat qilishi mumkin. Ko'rinadiki, noma janrida g'azal janriga nisbatan obraz yaratish manbalari va imkoniyatlari keng hamda chegarasiz.

"Muhabbatnoma"ning umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyliги muallifni o'z davri an'analaridan yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. Ulug' shoir ko'plab salaf-lari, zamondoshlaridan farqli ravishda, lirik obrazlarning tashqi portretiga oro beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, shoir yaratgan lirik obrazlar muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar va she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylandilar.

Lirik obrazlar haqida ga'irganda, ularning shoirlar tomonidan she'riyatga olib kirilishi borasida fikr yuritganda faqat ijtimoiy-siyosiy voqelik masalasi bilan cheklanib qolish unchalik to'g'ri emas deb o'ylaymiz. Donishmandlardan birining " tashbeh qo'llashda mohir bo'lgan shoir jahongir-roq bo'ladi", degan fikrlarini lirik obraz yaratish masalasiga ham tatbiq etish mumkin. Xorazmiy o'zigacha mavjud bo'lgan lirik obrazlar hamda an'anaviy badiiy san'atlar bilan cheklanib qolganida bu qadar mashhur bo'lolmasdi.

Noma janridagi obrazlar g'oyat xilma-xil. Ulardan eng asosiylari: shoh va gado, raqib, yor, oshiq, mahshuq, may, gul, bulbul, do'st va boshqalar. Buning

ustiga har bir obraz shoir taxayyulining turli qirralarini, g'oyalarini, qarashlarini, munosabatini ifodalashiga qarab yana turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Raqib – oshiqning doimiy dushmani. **Yor** majlisida raqibga joy bo'lmasligi kerak. Odamlar davrasida itning bo'lishi ajablanarli bo'lganidek, oshiqning yonida raqibning o'tirishi ham ana shunday hol. SHu ma'noda sadoqat va vafo timsoli bo'lgan it bu safar raqibning timsoliga aylanadi.

Sharq mumtoz she'riyatining obrazlar olami g'oyat rang-barang. **May** obrazi, **yor**, **oshiq**, **mahshuq** obrazlari, **do'st** va **raqib**, **gul** va **tikan**, **bulbul** va **zog'** timsollari va hokazo. Biz atayin ularning xarakteri va mazmun-mohiyatiga ko'ra qarshilantirib sanamoqdamiz. Darhaqiqat, adabiy obraz hamda timsollarga kurashchanlik xos, ezgulik bor joyda yovuzlik ham hukm suradi. Do'st bilan birga yonma-yon raqib ham nafas oladi. Bulbulning bulbulligini zog'lar borligi uchun chuqurroq his qilsak, qadrlasak ajab emas. Qolaversa, Gulga yetishmoq uchun Tikan bilan kurashmog'imiz, yoki u yetkazgan aziyatlarga bardosh bermog'imiz talab etiladi. Ehtimol, adabiyotning hayot bilan chambarchas bog'liqligi va abadiyatga daxldorligini ham mana shu xususiyatlar tahminlasa kerak. Har bir shoir ijodida ayrim obraz bo'rtibroq ko'rinadi.

Bundan tashqari noma janridagi asarlarda tabiat tasviridan o'rinli foydalanish va bu tasvirning oshiq yoki ma'shuqaning ruhiy kechinmalari, holatlari biln bog'liq holda olib borish hollari ko'rinadi. Noma janrida yaratilgan asarlar tarkibida g'azallar, qasidaga xos jihatlar (Muhammad Xojabek tavsifi), masnaviy, qit'a, fard singari janrlarni, tabiat manzaralari tasviri, xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan maqol, matal, hikmatli so'zlarni singdira olishi bilan xarakterlanadi.

Bir shoir tomonidan bir xildagi mavzuning bir necha lirik janrlarda qalamga olinishini chog'ishtirish ham janrlar imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirishda qo'l keladi. Shu yo'l bilan ham har bir lirik janr tabiati, ifoda imkoniyati va xarakterini asoslash mumkin. Ayniqsa, Xorazmiyning keng ko'lamli va boy ijodiy merosidan bu masalani yoritish uchun istagancha misol keltirsa bo'ladi. Qizig'i shundaki, bitta mavzu va g'oyaning ifoda yo'suni turli janrlarda

turli ko'rinishlarga – bahzan lirik-falsafiy, bahzan axloqiy-didaktik, gohida esa lirik xulosa tarziga ega bo'ladi.

Xorazmiy o'zining "Muhabbatnoma" asarining xalqimiz madaniy-ma'rifiy hayotida o'chmas iz qoldirishini quyidagicha bashorat qilgan edi:

***Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi,
Va lekin yer yuzinda oti qoldi.***

***Buni kim ishq birla bir o'qug'ay,
Haqiqat olamin munda bilgay.***

***Eshitqon bu kitobni ham bitigay,
Tilarmenkim, duoda yod qilg'ay.***

Mumtoz she'riy asarlarda fikr shunchaki bayon qilinmasligi, ularning aksariyati, xususan, diniy-tasavvufiy namunalarda ramz va majoz yetakchi bo'lishi, biz yuqorida sanab, tahlil qilgan lirik obrazlar zohiriy va botiniy ma'no qatlamlarida o'ziga xos mazmun, mohiyat kasb etishi, qolaversa, aruz she'r tizimiga xos nozik ohanglar tovlanishi noma janrini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Ana shu xususiyatlarni hamisha yodda tutish mumtoz adabiyotimiz namunalaridan, xususan, noma janrida yaratilgan asarlardan to'laonli bahra olishimizga sabab bo'ladi.

Fikrimizcha, xat, maktublardagi individual-intim xususiyatlar, ko'ngil rozini, his-tuyg'ularni to'laonli aks ettira olish imkoniyati uning bora-bora badiiy adabiyotga ham kirib kelishiga zamin hozirlagan. Xat yozuvchilar dastlab **roqim** (raqam qiluvchi), **munshiy** (insho bituvchi) **kotib** (maktub yozuvchi) singari shaxslardan bora-bora adib va muallifga aylanganlar. Xatni eltuvchi vositachilar dastlab **qosid**, **roviy** (rivoyat qiluvchi) deb nomlangan bo'lsa, ularning o'rniga asta-sekinlik bilan **bodi sabo**, **tong nasimi** singari maktubni yetkazuvchi obrazlar shakllangan. SHu tariqa maktub-nomalarda an'anaviy obrazlar ham shakllangan. Turli badiiy usul va vositalar esa maktubning adabiyot taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutishiga zamin hozirlagan.

III BOB.

TARIXIY DAVR, MADANIY HAYOT

1-fasl. «Muhabbatnoma»ning yaratilish davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot va adabiy muhit

Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Xorazmiyning hayoti va adabiy faoliyati haqida, qisqa bo'lsa ham, ma'lumot beruvchi yagona manba uning «Muhabbatnoma» asaridir. Shoir «Muhabbatnoma»ning muqaddimasi va qisman xotimasida hamda shu asarga ilova qilgan she'riy «Hikoyat»ida o'z sarguzashtlari va adabiy faoliyati haqida Ba'zi bir ma'lumotlarni bayon etadi.

Shoirning nomi bizga ma'lum emas. «Xorazmiy» esa shoirning taxallusi bo'lib, bu taxallus uning xorazmlik ekanini ko'rsatadi. Xorazmiy XIV asr boshlarida (yoki XIII asr oxirida) tug'ilgan. Xorazmiy yashab ijod etgan davr Chingizxon istilosining dahshatli oqibatlaridan keyin Markaziy Osiyoda ijtimoiy va madaniy hayot qaytadan birmuncha jonlanib, yangi muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilayotgan davr edi. Xorazmiyning yoshlik yillari, o'qish davri va ilk ijodiy faoliyati Xorazmda o'tdi. «Hikoyat»da bayon etilishicha, Xorazmiy bir necha sharq mamlakatlariga sayohat qilgan, turli xalqlarning hayoti bilan tanishgan va og'ir mashaqqatlarni boshidan kechirgan.

Xorazmiy Movarounnahrda ham uzoq sayohat qiladi. Sayohat vaqtida u 1353 yilning oxirlarida Oltin O'rda xoni Jonibekning Sirdaryo muzofotidagi amaldorlaridan bo'lgan Muhammadxojabek bilan tanishadi. Muhammadxoja ma'rifat'arvar va qobiliyatli shoir bo'lib, u Xorazmiydan o'sha qish faslida shu yerda qolib, o'zbek tilida bir asar yozishni iltimos qiladi. Shoir bu haqda «Bayoni voqein aytur»da shunday hikoya qiladi:

***Tabassum qildi., aydi: ey faloni,
Keturgil bizga loyiq armug'oni.
Ko'ngil bahrinda ko'p gavharlaring bor,
Ochunda 'orsiy daftarlaring bor.
Muhabbat nardini ko'plardan yuttung,
Shakkartek til bila olamni tuttung.
Tilarmenkim bizning til birla paydo,
Kitobe aylasang bu qish qotimdo.***

«Muhabbatnoma» hijriy 754 yilda (melodiy 1353-1354 yillarning qish faslida) Sirdaryo atrofida yoziladi.

«Muhabbatnoma»ning ikki qo'lyozma nusxasi bor. Ulardan biri uyg'ur yozuvida, ikkinchisi arab yozuvida ko'chirilgan. Uyg'ur yozuvidagi qo'lyozma 1432 (835) yilda, Yazd shahrida Mir Jamoliddin degan kishining to'shirig'i bilan , Boqi Mansur baxshi nomli kotib tomonidan ko'chirilgan. 14 varaqqa bitilgan «Muhabbatnoma» boshqa asarlar bilan ko'chirilgan. Bu qo'lyozma Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Qo'lyozmaning ikkinchi nusxasi arab yozuvida bo'lib, 1508-1509 yillar (914) da ko'chirilgan. Adabiyotshunos S. Qosimov «Muhabbatnoma»ni tadqiq etib, dissertatsiya yozdi. «Muhabbatnoma»ning to'la nusxasi 1959 yilda badiiy adabiyot nashriyoti tomonidan nashr etildi (nashrga T. Jalolov tayyorlagan).

«Muhabbatnoma»ning arab yozuvidagi nusxasi ilova qilingan «Hikoyat» bilan birga 473 baytdan iboratdir. «Muhabbatnoma» hamd, shoirning Muhammadxoja bilan ko'rishganining bayoni, 3 g'azal (bittasi fors-tojik tilida), masnaviy, «Muhammadxojabek madhi» va «Vasful hol»dan tashkil topgan. Asarning asosiy qismini nomalar tashkil etadi. O'n bir nomaning uchtasi: 4,8 va 11-nomalar fors-tojik tilida bo'lib, qolgan 8 noma o'zbek tilidadir. «Muhabbatnoma» xilma-xil janrlardan (noma, masnaviy, g'azal, qit'a, madhiya va boshqalardan) tashkil topgan asardir.

«Muhabbatnoma» o'z nomi bilan ham ishq-sevgi asaridir. Asarda yor, sevgilini jannatdagi hurlardan ham yuqori qo'yadi:

***Soching bir torina ming hur yetmas,
Yuzungning nurina ming nur yetmas.***

*Agar bersa suyurg‘ab haq taolo,
Kerakmas sensizin firdavsi a‘lo.
Ko‘ngulga jondin ortuqrak kerak san,
‘ariyu hurdin ham ko‘rklurak sen.
Farishta ko‘rsa bo‘lg‘ay sizga moyil,
Sizningtek kimda bor shaklu shamoyil.
Sumandek orazing guldur tikansiz,
Menga do‘zax erur-uchmox sensiz.
Agar kun tug‘masa ham, yoqtu qilg‘ay,
Yuzung nuri bu dunyining saroyin.
Zi sharmi ro‘yi tu xurshidi xovar,
Kashad dar sar zi shab to subh chodar.
(quyosh hijolat bo‘lib butun tun bo‘yi
yuziga chodir tortib oladi.)
Qamuq ko‘rkluklar uzra podshosen,
Masih anfosliq, Yusufliqosen.*

Ko‘rinib turibdiki, «Muhabbatnoma» dunyoviy mohiyatga ega. Shoir real hayotni jannat va uning hurlaridan ham yuqori qo‘yadi. Xorazmiyning yuqoridagi singari g‘oyalari, qarashlari XV asr o‘zbek adabiyoti cho‘qqisi hisoblanmish Alisher Navoiy ijodida yana ham yuqoriga ko‘tarilishi, rivojlantirilishi Xorazmiyning adabiyotimiz va madaniyatimiz tarixida o‘ziga xos o‘rni bo‘lganligini ko‘rsatadi.

*Ko‘ngulga jondin ortiqrak kerak sen,
‘ariyu hurdin ham ko‘rklurak sen.
Farishta ko‘rsa bo‘lg‘ay sizga moyil,
Sizingtek kimda bor shaklu shamoyil.*

Yoki:

*Sumantek orazing guldur tikansiz,
Menga do‘zax erur - uchmoq sensiz.*

Demak, Xorazmiy madh etgan yor real inson, shoir muhabbatini qozongan mahbubadir.

Shoir o'z asarida yorning, ya'ni insonning, yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Shu bilan birga shafqatsizlik va iltifotsizlikdan shikoyat qiladi. Bu esa, boshqa 'rogressiv adiblarida bo'lganidek, chuqur va keng ijtimoiy mohiyatga egadir. Shu bilan birga, «Muhabbatnoma»da shoirning o'timistik qarashlari, yaxshi kunlardan umidvorligi ham o'z aksini topgan. Bu esa, ma'lum ma'noda asar xalqchilligini, uning el orasida mashhur bo'lishini ta'minlashda katta rol o'ynagan.

Muhammadxoja madhi. Muhammadxoja hukmdorgina emas ma'rifat'arvar va qobiliyatli shoir hamdir. Biroq Xorazmiy uni hukmdor sifatida ulug'laydi, madh qiladi.

Necha hashmatli sulton bo'lsa bo'lsin,

Ayitmon mol uchun madhu sano men.

Lekin Xorazmiy bu so'ziga qarshi borib, uni behad ko'klarga ko'taradi.

Xorazmiyni noma yozishga dahvat etgan Oltin O'rda xoni Jonibekning Xorazmdagi noibi Muhammad Xojabek fors-tojik adabiyotidagi nomalardan voqif ekanligi, shuningdek, Xorazmiyning so'z san'atidagi iqtidorini bilgani holda uni fors-tojik tilida ijod qilgan so'z san'atkorlari bilan ijodiy musobaqaga undayotganligini payqash qiyin emas. Bu davr Xorazmda o'zbek tili ravnaqi uchun kurash kuchaygan bir payt edi. Xalqning vatanparvarlik va milliy his-tuyg'ularini hisobga olgan Muhammadxojabek Xorazmiydan o'zbek tilida asar yozishini so'raydi:

Tilarmenkim bizning til birla paydo

Kitobe aylasang bu qish qotimdo.

Bundan tashqari Xorazmiy "Muhabbatnoma" asarining 2 ta nomasini va 2 ta g'azalini fors-tojik tilida yozganligini e'tiborga olsak, noma muallifining har ikki tilni mukammal bilganligiga va har ikki tilda barakali ijod qilganligiga ishonch hosil qilamiz.

"Muhabbatnoma" ishq-muhabbat mavzusida o'zbek tilida yaratilgan noma janrining birinchi nomasi, yagona yodgorligidir. Xorazmiy bu asari bilan o'zbek adabiyoti ravnaqiga bemisl hissa qo'shdi. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ham o'zining "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida "Muhabbatnoma"dan

Aningkim ol yanoqinda meng yaratti,

Sochi birla bo'yini teng yaratti, -

singari misol va namunalar keltirishi muallifning keyingi asrlarda ham adabiyot ixlosmandlari o'rtasida shuhratini yo'qotmaganligini ko'rsatadi.

“Muhabbatnoma”da an'anaviy muqaddimadan tashqari noma, g'azal, qasida, fard, qit'a, munajat, masnaviy, voqeh, hikoyat kabilar bor. Lekin asar mag'zini oshiqning ma'shuqaga yozgan o'nta nomasi tashkil etadi. Nomalardan ikkitasi fors-tojik tilida yozilgan. Nomalar muayyan o'lchov asosida yaratilgan. O'zbek tilidagi nomalar asosan 22 baytdan, fors tilidagi nomalar 321-36 baytdan tashkil topgan. Nomalardan faqat ikkinchi noma “Tong nasimi”ga murojaat bilan boshlansa, boshqa nomalar bevosita ma'shuqaning o'ziga murojaat qilish bilan boshlanadi.

Shoir har bir nomada ma'shuqaning beqiyos mubolag'alii tavsifini beradi:

1-noma:

***Ayo ko'rk ichra olam podshohi,
Jahon tutti sening husnang si'ohi.***

3-noma:

***Ayo xurshiddek olam chirog'i,
Munavvar chehrangiz firdavs bog'i.***

6-noma:

***Ayo bo'yi sanuvbar, chehrasi oy,
Quyosh yanglig' jamoling olamaroy.***

Agar nomalarda ma'shuqa husn jamoli xilma-xil mubolag'aviy tashbehlarda, oshiqni o'ziga maftun etuvchi bir romantik qiyofada tasvirlanib, faqat ayrim baytlardagina uning xarakteridagi bevafoqlik ko'rinishlari tilga olinsa, uchinchi noma butunlay ma'shuqaning nomehribonligshi, vafosizligini tasvirlashga bag'ishlanadi.

Xorazmiy asarni yaratishda qaysi manbalarga tayanganligini ko'rsatmagan. Lekin muallif bu asarni yozgunga qadar katta ijodiy tajribaga ega bo'lgan yetuk shoir bo'lganligi, muhabbat mavzusida go'zal lirik asarlar yaratib, shuhrat tutgan zullisonayn ijodkor bo'lganligi aniq.

Shoir Oltin O'rdada bir muddat yashagan, Qrim, Kavkaz, Kichik Osiyo va SHomi SHarifga sayohat qilgan. Bu mamlakatlarda fors-tojik, turk, arab tillarida yaratilgan badiiy adabiyotlar bilan tanishgan. Bu mamlakatlarda o'sha davrda dostonlar tarkibida va alohida badiiy asar sifatida sevgi-muhabbat maktublari tarzida ko'plab "noma"lar yaratilgan edi. O'zbek adabiyotida esa bu tipdagi janrga namuna bo'ladigan asar "Muhabbatnoma" yozilgunga qadar bo'lganligi ilm olamiga ma'lum emas.

Xorazmiy o'zining "Muhabbatnoma" ustidagi ishida dastlab turkiy tildagi adabiyotning eng yaxshi namunalaridan oziqlangan fors-tojik tilidagi Avhadiy "Dahnoma"sidan, xamsanavislikdagi oshiq-mahshuqlarning savol-javob lavhalaridan bahramand bo'lgan.

Xorazmiy o'zidan avval yaratilgan nomalardan yaxshi xabardor bo'lgani holda, o'z ijodiy 'rinsi'laridan kelib chiqib, "muhabbatnoma"ni faqat oshiqning ma'shuqaga yozgan nomalari tarzida yaratishga qaror qiladi. Unda ma'shuqa tavsifiga keng o'rin berilgan bo'lib, vasf yetkchi o'rinni egallaydi. Asarda ma'shuqa ma'naviy dunyosini ochadigan, oshiqqa qarata yozilgan javob nomalari yo'q.

Xorazmiy fors-tojik adabiyotida mavjud nomachilik an'analari – muqaddima, asar yaratilish sababi, nomalar, xotima kabilarga rioya qilgani holda asarning qurilmasi jihatidan ulardan farqli usulda butunlay yangi original ijod namunasini yaratadi. Bu so'zsiz Xorazmiyning o'z davri estetik talablaridan kelib chiqib ish tutganligidan darak beradi. Xorazmiy bu asarida tasavvuf talqinlari orqali inson go'zalligini, insoniy ishqni ulug'lab, o'zbek adabiyotida ilg'or va taraqqiy'arvar romantik kayfiyatlarni kuylashni boshlab berdi.

Islomiyatning ilk davridayoq kurtak yozib, keyinchalik mukammal ta'limot bo'lib shakllangan tasavvuf hozirgacha musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan va butun dunyoda mashhur bo'lgan ta'limotdir. Bu ta'limot vositasida insoniyat islom dinining zohiriy va botiniy go'zalligini, buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Tasavvuf, avvalo, ruh tarbiyasi, ma'naviyat, tafakkur, jismoniyat uyg'unligi haqidagi ta'limotdir. Tasavvufning bosh g'oyasi komil

insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda ruhan pok, mahnan yuksak inson tushuniladi. SHuning uchun ham o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari vahdat, komillik masalalariga ko'p marta murojaat qilganlar.

Komil inson, shu tariqa, mumtoz adabiy merosimizning yetakchi obraziga, asosiy qahramoniga aylanadi. Uning orzu-armonlari, intilishlari, kurashlari, dardi, tashvishi, mavjud olam haqidagi tasavvurlari so'z san'atkorlari ijodida badiiy tadqiq obhektiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ulug' ajdodlarimiz o'z davri qarashlari va tushunchalari asosida Insonni ulug'lar ekanlar, tasavvuf tariqati bu borada ularga eng qulay vosita bo'ldi. Chunki tasavvuf, uning ilohiy va dunyoviy g'oyalari o'z zamonasining 'eshqadamlari bo'lgan ijodkorlarning ilhom manbai, o'zlarining hur fikrlarini ifodalash vositasi bo'lganligi shubhasiz. Shu sababli ham o'tmish adiblari ijodidagi insonning ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan barkamolligi lirikaning ham, epik asarlarning ham yetakchi g'oyalaridan biridir.

Modomiki, Inson Haq sirlarining mumtozi ekan, u turli illat va nuqsonlardan xoli bo'lmog'i lozim. Insonni insoniylikdan chiqaradigan, uni to'g'ri yo'ldan ozdirib, beburd qiladigan xususiyat – bu kibr va manmanlik, nafs hamda xudbinlikdir. Insonning o'zligini anglashi, ma'naviy barkamollik sari intilishi lozimligi mumtoz adabiyotimiz namunalarida batafsil yoritilgan. Lirik asarlarda esa Inson kamoloti g'oyasi tasavvuf tariqatida belgilangan so'nggi bosqich – Haq vasli bilan bog'lanadi. Lirik qahramon ma'lum doiradagi diniy ehtiqod bilangina cheklanib qolmaganligi uchun uning kechinmalari, tasavvur va tushunchalarini keng va atroflicha bayon etishga imkon tug'iladi. Chunki bosh maqsad Haqqa erishmoq ekan, komil inson bunga turli yo'llar orqali erishmog'i mumkin.

Xudbinlikni qoralash, samimiylik va o'zgalarga hurmat bilan qarashni yoqlash, kamtarinlikka undash orqali ham mumtoz adabiyotimiz namoyandalari odamlarni barkamollik kasb etishga dahvat etganlar.

Mumtoz so'z san'atkorlarining lirik she'rlarida komillikka dahvat etuvchi ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan namunalar ko'plab to'iladi. Ularni mutolaa etar ekanmiz, insonparvarlik ularning bosh maqsadiga,

Inson yetakchi obrazga, uning barkamolligi esa asosiy g'oyaga aylanganini kuzatishimiz mumkin.

Shu tariqa tasavvufdagi komil inson konse'siyasida ruhiy va ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash birlamchi maqsad bo'lgan. Mazkur konse'siyaning nazariy va amaliy asoslari diniy va ilmiy adabiyotlarda mukammal ishlab chiqilgan.

Ruhiy poklanish inson botinidagi illatlar yig'indisi bo'lmish nafsni yengish orqali yuzaga chiqadi. Nafsni yengish esa ma'naviy fazilatlar jamlanmasi bo'lmish ishq vositasida amalga oshiriladi.

Tasavvufda hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi ilmda ham asosiy e'tibor ishqni shakllantirishga qaratiladi. Bunda ishqni tarbiyalash uchun avvalo ilmga bo'lgan talabni shakllantirish zarur. Talab bu ilmga bo'lgan qiziqishdir. Talab dunyoni, o'zlikni bilishga intilishdan hosil bo'ladi. Inson dunyoni, ilohiyotni anglash talabiga tushar ekan, tasavvuf unga eng avvalo o'zini bilishni taklif etadi.

Tasavvuf talqinlariga ko'ra ishq va oshiqlik Haqqa intilishning, mahrifatga shaydolikning oliy ko'rinishidir. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyo bo'lishi mumkin, ammo ishq va oshiqlikda bunday illat bo'lmaydi. Oltinni olov sinaganidek, bandani ham ilohiy ishq toblaydi, kamolot 'illa'oyalariga ko'taradi. Faqat ishq kishini abadiyatga, asl maqsadga eltadi.

Buyuk mutasavvif shoir va shayx Najmiddin Kubro hazratlari quyidagilarni aytganlar: "Ishq insonning yurak-bag'rini yondirguvchi bir otashdir. U aqlni shoshirtirar, ko'zni ko'r, quloqni kar aylar. Ammo eng ulkan qo'rquvlarni ham bartaraf etar. Butun diqqatni ma'shuqaga jalb etar..." Shu sababli inson olamda Yaratuvchining go'zalligini ko'rar va shu go'zallikni sevar. Olam esa Ollohning go'zalligidir. Agar Ollohn kim ayni shu nuqtai nazar bilan sevsa, olamni Olloh sevgisi bilan sevgan bo'lur. Ammo bu ishq insoniy muhabbatdan boshlanib, ilohiy sevgiga tomon yo'nalgan va rivoj topadigan ishqdir.

Ishq-muhabbat tasavvufning asosiy ruknlaridan biri, g'oyaviy asosidir. Deyarli barcha irfoniy tushunchalar sharhi ishq-muhabbatga kelib taqaladi. Tasavvuf ta'limotining deyarli barcha namoyandalari tasavvuf ilohiy ilm haqidagi

ilmdir, deya hukm chiqarganlar. Chunki tasavvuf ilohiy mahrifatni egallash, Allohning sifat va ismlari orqali Uning zotini bilish va tanishni talab qilar ekan, buni aql va nazariy-tafakkuriy bilimlar bilan emas, balki botiniy tuyg'u, ya'ni muhabbat vositasida amalga oshirish mumkin deb ta'lim beradi. Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida "Ishq ustodi oldida aql – tifli maktabdur", ya'ni ishq shunday bilimdon murabbiyki, aql uning oldida maktab bolasiga aylanib qoladi, deya uqtiradi.

Shunday qilib, chinakam solik – bu oshiq solikdir, ishq ilohiy mahrifatni kashf etuvchi qudrat, solik vujudini yondirib, mahbub visoliga yaqinlashtiradigan poklovchi muqaddas olov.

Bundan tashqari, insonda ilohiylik bilan moddiylik birgalikda yashaydi. SHunday bo'lgach, inson ruhi o'z asli Mutlaq ruhga qarab tinimsiz ravishda harakatda bo'ladi, moddiy vujud bilan kurash olib boradi. Insonning Ilohga bo'lgan sig'inishi, muhabbatining boisi shu. SHu sababga ko'ra, muhabbat o'zlikdan voz kechib, dunyoviy orzu niyatlarni yo'qotish – mahv etishni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyo muhabbatidan ko'ngil uzmasdan Iloh muhabbatini qozonish mumkin emas. Dunyo muhabbatidan yuz o'girib, ilohiy mahrifatni egallagan odam, nafsoniy sifatlardan yuz o'girib, ilohiy sifatlarni o'zlashtiradi.

Tasavvuf ta'limotining yetakchi tadqiqotchilaridan biri prof. Najmiddin Komilov komil inson tushunchasini quyidagicha bayon etadi: "Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi.

Komil inson iloh bilan odamlar o'rtasidagi vositachi, ilohiy amr, g'ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' homiydir...

Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'htabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir.

Shuning uchun har bir pok axloqli, ilohsevqar shaxs komillikka intilishi va bu yo'lda nasiba olishi mumkin.

Komillikning oliy belgisi haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, Haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komildir".¹³

Shulardan kelib chiqib, Xorazmiy ma'shuqa go'zalligini tarannum etish, unga bo'lgan oshiq muhabbatini, muhabbatdagi sadoqatni tahrif etish orqali ezgu his-tuyg'ularni ardoqlaydi. Zero, tasavvuf adabiyotining dastlabki mazmuni ham hayotni, insonni sevish, hayotdan bahramand bo'lishdir. "Muhabbatnoma"da vafot talqinlari orqali inson ruhiy dunyosining boy qirralari ochib beriladi.

Qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodiyoti hamda yozma adabiyot an'analari davom ettirgan, o'z navbatida fors-tojik tilidagi adabiy an'analardan bahramand bo'lgan o'zbek nomachiligi XIII-XV asrlarda keng taraqqiyot yo'lga chiqib oldi. Bu davrlarda o'zbek adabiyotida yangi-yangi janrlardagi badiiy asarlar bilan birga nomalar ham yuzaga keldi. Bu janrning o'zbek adabiyotidagi birinchi kashfiyotchisi Xorazmiydir. Nomaning adabiy-badiiy janr sifatidagi yorqin namunasini Xorazmiy o'zining "Muhabbatnoma" asari orqali yaratib, o'zbek mumtoz adabiyotida nomachilik an'anasini boshlab berdi.

Faslda bildirilgan fikr-mushohadalardan quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'zbek adabiyotidagi birinchi nomalarning bosh mavzusi insonning insonga bo'lgan samimiy munosabatlarining badiiy ifodasidir.
2. Nomalar insoniy sevgi-sadoqat tushunchalarining ilohiy-tasavvufiy muhabbat sari rivojlanishining badiiy-estetik ta'sirchan bayonidir.
3. Ishq-muhabbat mavzusi orqali insonning turli illat va qusurlardan poklanishi va komillikka intilishiga dahvat nomalarning yetakchi g'oyalaridan biridir.
4. O'zbek adabiyotidagi birinchi noma insonning o'zligiga nazar solishi va ma'naviy dunyosini kashf etish sari katta qadamdir.

¹³ Комилов Н. Комил инсон – миллат келажаги

2-fasl. Nomachilikda an'ana va novatorlik masalalari

Biz yuqoridagi fasllarda XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmida noma janrida yaratilgan asarlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, janrning muhim belgilari haqida fikr yuritdik. Mazkur nomalarda asosan, oshiq obrazi yaratilib, bu obrazning hayot va insonga, xususan, ma'shuqaga bo'lgan qarashlari, munosabatlari, kechinmalari fonida ma'shuqaning tavsifiy obrazi yaratiladi. Shuning uchun ham bu asarlarda lirik tasvir kuchli bo'lib, epik holat ikkinchi planda bo'ladi. Nomachilikda lirik tasvir bilan epik ifodaning uyg'unlashib borishida XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Yusuf Amiriy "Dahnoma"sining ahamiyati alohidadir.

Shoirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida mufassal ma'lumotga ega emasmiz. Amiriy haqida ma'lumot beruvchi manba undan bizgacha yetib kelgan she'rlar devoni, "Dahnoma"si hamda "Bang va Chog'ir" asarlari, shuningdek, Alisher Navoiyning "Majolis-un nafois" asaridir.

Yusuf Amiriy o'z davrining istehdodli turkigo'y shoiralaridan bo'lgan. U Xuroson poytaxti Hirotga kelib, o'z istehdodini kamolot cho'qqisiga yetkazadi. Amiriy ijodi XV asr birinchi yarmida Boysung'ur mirzo homiyligi yillarida katta shuhrat qozongan. Shoir xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan tuyuq janrini yozma adabiyotga olib kirish borasida ham o'z hissasini qo'shgan. Amiriy talantli shoir bo'lish bilan birga epik janrlarda ham alohida qobiliyatini namoyish eta olgan. Uning "Bang va Chog'ir" asari munozara usulida yaratilgan va nasr yo'li bilan bayon etilgan.

"Dahnoma" shoir ijodida muhim o'rin tutadi. Amiriy bu asari orqali o'zbek nomachiligini yangi bosqichga ko'tardi. Bu asar Shohruh Sultonning katta o'g'li Boysung'ur mirzoga atab yozilgan. Asar muqaddimasi va xotimasida Boysung'ur mirzoga qasidalar bag'ishlangan.

Amiriy o'z nomasini yaratishda ko'proq Nizomiyya ergashadi. Asar oxiridagi ushbu misralar ham buni tasdiqlaydi:

Nizomiydek ishin bedardu ranj et

Aning “Dahnomasin “‘anj ganj” et.

XIV asr o'rtalaridan boshlab o'zbek adabiyotida noma janri taraqqiy etib, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo'jandiyning “Latofatnoma”, Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” asarlari yaratilgan edi. Amiriy, albatta, o'zbek tilidagi bu nomalardan yaxshi xabardor bo'lgan. Chunki “Latofatnoma” va “Taashshuqnoma” bevosita shoirning zamondoshlari tomonidan yaratilgan bo'lsa, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asmari XV asr boshlarida ilm-fan, madaniyat va san'at ahli nazarida hurmat-e'tibor topgan, zamona shuarosi unga ergashib, yangi nomalar yaratgan edilar.

Boshqa nomalar bilan Amiriy “Dahnoma”sini qiyosiy tekshirish shuni ko'rsatadiki, shoir o'zbek adabiyotida noma janrining an'anasini davom ettirgan bo'lsa ham asar kom'ozitsiyasini tuzishda butunlay yangi yo'l tutgan. U Nizomiyning “Xusrav va Shirin” va Avhadiyning “Dahnoma” asaridan ta'sirlanib, kom'ozitsion tuzilishi va mazmuni jihatdan original, noma janrining yangi 'og'onasi bo'lgan nodir liro-epik asar yaratishga erishadi.

Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asari muqaddima, asosiy qism va xotimadan tashkil topgan. Muqaddimada munojot, naht, Sulton Boysung'ur mirzo madhi, Horun ar-Rashid hikoyati, sababi nazmi kitob qismlaridan iboratdir.

Muallif asarning yozilish tarixi haqida so'z ochib, “Dahnoma”ning kitobxonlar e'tiboriga sazovor bo'lishini orzu qiladi:

Gahekim bersang buyuklik barotin,

Amiriyga nishon ber anda otin.

Anga berding chu devon daftarini,

Ato qilding maoni kishvarini.

Nizomiytek ishin bedardu ranj et,

Aning “Dahnoma”sin “‘anj ganj” et.

Amiriyning ushbu nomasi jami 46 katta-kichik boblarga bo'lingan bo'lib, unda masnaviy yo'lida bitilgan o'nta nomadan tashqari g'azal, fard va hikoyatlar mavjud.

“Dahnoma”da tasvirlanishicha, bir yigit do'stining uyidan mehmondorchilikdan qaytayotib, yo'l ustida go'zal bir qizni uchratib qoladi. U qiz bilan suhbatlashmoqchi bo'ladi. Lekin suhbat qovushmaydi. Yigit va qiz o'z yo'llariga ravona bo'ladilar. Ammo yigit qizning sarvdek qaddi qomatini, husnu jamolini eslab, muhabbat o'tida qovrilib, tuni bilan uxlay olmaydi, uning qalbida qizga nisbatan samimiy muhabbat tuyg'ulari alangalanadi. U o'zining bunday his-tuyg'ularini qizga yetkazish yo'llarini axtaradi va ertalabki tong shabadasi Saboga murojaat qiladi. Sabo oshiqning iltimosini bajarish uchun yo'lga o'tlanadi. U ma'shuqa manziliga yetib, odob va tavoze bilan oshiq nomasini qizga tutqazadi.

Oshiq o'z nomasida ma'shuqaning o'zini maftun etgan mubolag'aviy tasvirini tahrif etib, ana shu go'zallikning maftuni bo'lib qolganligini, ma'shuqa uning inon –ixtiyorini olganligini bayon etadi. U ma'shuqadan o'ziga rahm-shafqat qilishini, begonalardek muomala qilmasligini o'tinadi. Oshiq o'z nomasini “Yuzung bergay xud oxir oshnolik” deya umidbaxsh ruh bilan tugatadi. Muallif noma oxirida ma'shuqa shahniga maqtovlar bilan to'la g'azal bitadi va uni bir fard bilan tugallaydi.

Sabo orqali oshiqning nomasini olgan ma'shuqa undagi oshiqona mazmunidan jahli chiqadi, g'azablanadi. U oshiqni muhabbatdan lof uruvchi, o'zini zo'rma-zo'raki oshiq qilib ko'rsatuvchi parishon fikrli devonalardan biri deb hisoblaydi. U iztirob va itob bilan oshiq yigitga noma yozadi. Ma'shuqa o'z javobida yigitni bu nomaqbul fikridan qaytishga dahvat etadi. Yigitga visol onlarining nasib etmasligini, shuning uchun bu xom xayolni boshidan chiqarib yuborish kerakligini uqtiradi.

Bu yerda shoir “ishq boshqa, havas boshqa” naqliga amal qilib, ma'shuqa tilidan sevgi-muhabbat murakkab olam ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Ma'shuqa ishq yo'lidagi qiyinchilik, iztirob va mashaqqatlarni birma-bir sanab, oshiqni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi. Albatta bu so'zlarning hammasi oshiq ishqining

pokligini, uning muhabbatdagi sadoqatini sinab ko'rish, oshiqning ishq haqiqiyligi yoki shunchaki hoyu havas ekanligini aniqlash uchun ishq yo'lida qo'yilgan sinov lahzalari edi xolos.

Oshiq ma'shuqaning tahnalarga to'la nomasini o'qir ekan, undagi nashtardek dilga botuvchi itob so'zlaridan xafa bo'lmaydi. Oshiq uchun eng muhimi, unga umid baxshida etadigan hol ma'shuqaning javob nomasi bo'ladi. Oshiq ma'shuqa nomasiga darhol javob yozishga kirishadi. Bu nomada ham ma'shuqaning sehu jozibasi tahrif va tavsif etiladi. Uning shamshoddek qomatini, o'likka jon bag'ishlovchi labini, oshiqlar imoni bo'lgan ko'zlarini, loladek yuzini chiroyli iboralar, o'xshatishlar, tazod va boshqa badiiy usullar bilan tahriflab, shunday go'zallik boshqalarga ham ezgulik baxsh etishi, "oshiq jarohatiga tuz se'masligi" kerakligini, jafoni haddan oshirish ma'shuqaga yarashmasligini uqtiradi. Nomada oshiq o'z jonini ma'shuqa yo'lga tikkanligi, niyati yaxshi va ehtiqodi mustahkam ekanligini tahkidlaydi, o'z nomasini umidvorlik tuyg'ulari bilan yakunlaydi.

Oshiqning nomasini o'qigan ma'shuqa oshiq ahvolini sezgirlik bilan his etadi, uning ishq pok, so'zi rost ekanligini anglaydi. U endi oshiq dilini jarohatlashni, ishq o'tida qovrilayotgan badanga tuz se'ishni o'ziga munosib ko'rmaydi. "Arodin yotlik hijobini olib, ochiq-yoruq javob yuborishga" ahd qiladi. U oshiqqa noma yo'llar ekan, avvalgi nomadagi ga'lar uning sevgisini bir sinovdan o'tkazish uchun atayin aytilganligini tahkidlaydi.

Shu o'rinda shoir "oltin o'tda sinaladi" degan xalq maqolini keltirib, oshiqning haqiqiy oshiqligi ham sinovlarda aniqlanadi, demoqchi bo'ladi. Ma'shuqa o'z nomasida oshiqning sevgisi haq, so'zi rost ekanligiga ishora qiladi.

***Menga bildurdi emdi ittihoding,
Bor emush zulfuma chin ehtiqoding,
Sango ul zamzama bexost ermish,
Har ohangiki qilding rost ermish.***

Ma'shuqaning bu nomasi oshiqni benihoya xursand etadi. Unda ma'shuqa visoliga yetishish ishtiyoqi ortadi. Oshiq sevinganidan xushxabar keltirgan saboga minnatdorchilik bildiradi, uning qadami qutlug' ekanligini tahkidlaydi. Oshiq tezda ma'shuqaga javob nomasi yozadi va uni sabodan yuboradi.

Oshiq nomasini olgan ma'shuqa uni harfma-harf o'qib chiqib, oshiqning ishq yo'lida chekayotgan ichki kechinmalaridan iztirobga tushadi, oshiqqa hamdardlik tuyg'ulari paydo bo'ladi. Bu muhabbat alangasi ma'shuqa qalbini ham asta-sekin egallay boshlaydi. Lekin ma'shuqa oshiq yigitni yana bir sinovdan o'tkazishga qaror qiladi. Uning ishq so'f va pok ekanligini tekshirib ko'rishga qaror beradi.

Ki har nargisga ul ko'z solguvchidur,

Tili savsan bikin so'z solguvchidur.

Ko'rub har sarvni borur o'zidin,

Yurur juyonu suv turmas ko'zidin.

Ma'shuqa bu satrlarda "tili boshqa, dili boshqa" oshiqlarni har kuni yangi-yangi ma'shuqaga ilashadiganlarni nazarda tutadi va ularni qoralaydi. U o'z oshig'idan haqiqiy sadoqat va vafodorlikni, ishqda sobitqadamlikni va poklikni talab qiladi.

Har bir adib o'z davrining farzandi. U, eng avvalo, o'zi yashayotgan muhit bilan birga nafas oladi, hayotdagi voqea-hodisalardan ta'sirlanadi, ularni qalamga olar ekan, o'z dunyoqarashi, 'ozitsiyasida turib, munosabatini bildiradi. Shunday ekan, biz so'z san'atkorining estetik ideallari, g'oyaviy-falsafiy xulosalari, badiiy mahoratini tahlil etishda ana shu nuqtai nazardan yondashuvimiz kerak bo'ladi.

Har bir davr insoniyat tarixining uzviy xalqasi. Shu bilan birga hayot doimo yangilanishlar sari yuz buradi, jamiyat taraqqiyotini esa turli o'zgarishlar belgilaydi. Ana shu jamiyatning tarkibiy qismi bo'lgan inson taqdiri, uning xarakteri, ma'naviy-ruhiy olamida ham xuddi ijtimoiy turmushda bo'lgani singari evrilishlar ro'y beradi. Kishilar zamona zayliga bo'ysunganlari singari davr va muhitni o'zgartirishga ham muayyan ta'sirini o'tkazadilar. Qadim zamonlardan an'ana bo'lib kelgan ezgulik va yovuzlik, olijanoblik va tubanlik, elparvarlik va

xudbinlik o'rtasidagi ayovsiz kurash, taraqqiyot omili bo'lgan ezgulikning zafar qozonishi insoniyatni yangi baxt-saodatlar sari yetaklaydi.

Noma janrining o'ziga xos xususiyatlari bayonidan shu narsa ravshan ko'rinadiki, Yusuf Amiriy garchi o'zbek adabiyotida o'zigacha Xorazmiy, so'ng zamondoshlari Xo'jandiy va Sayyid Ahmad tomonidan davom ettirilgan nomachilik an'anasiga amal qilgan bo'lsa ham, ijodkor shoir sifatida bu an'anani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan, lirik tavsiflarga nisbatan epik holatlarni kuchaytirish yo'lini tutgan. Natijada "Dahnoma" boshdan oyoq syujet chizig'iga, qahramonlar silsilasiga ega bo'lgan epik doston xarakterini kasb etadi. Kitobxon bu asarni o'qiganida uning ko'z o'ngida oshiqning ma'shuqa bilan uchrashuvi, ularning o'zaro suhbatlashuvi, oshiq qalbida sevgi tug'yon urishi, ma'shuqaga maktub yo'llashi, bu maktubni o'qigan ma'shuqaning kayfiyati, oshiqqa g'azab va itob bilan maktub yozishi, har bir maktubning mazmunidan oshiq yoki ma'shuqaning qalbida yuz bergan ruhiy g'alayonlar butun tafsiloti bilan namoyon bo'ladi.

Oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi nomalar asar qahramonlarining xarakterlarini, ularning hayotga, insonga bo'lgan munosabatlarini, fe'l-atvorlarini, ma'naviy olamini ochishda muhim bir vosita vazifasini bajaradi.

Yusuf Amiriyning "Dahnoma"si Sharq adabiyotining an'anaviy sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan bo'lib, unda tasvirlangan voqea-hodisalar fonida sevgi va muhabbat, vafo va vafodorlik, halollik, rostgo'ylik, sabot, matonat, turmush hamda oila munosabatlari kabi masalalar ushbu asarning g'oyaviy motivlari silsilasini tashkil etadi. "Dahnoma", asosan, nomalardan tashkil topganligi ham undagi obrazlar qiyofasi, xarakter xususiyatlari shu asarning o'ziga xos jihatlari doirasida aks etadi.

Asardagi oshiq obrazi chin sevgiga ega bo'lgan inson, kamtarin hamda sadoqatli yigit, iztirob va sinovlarni yengib o'tish orqaligina ma'shuqa visoliga yetish mumkinligini his etadi. Shuning uchun ham ma'shuqaning dastlabki g'azabli nomasidan tushkunlikka tushmaydi. Aksincha, o'z sevgisiga fidoyiligini qayta-qayta tahkidlaydi.

Asarda yuqor qadar keng va atroflicha tasvir etilgan qahramonlardan biri ma'shuqa obrazidir. Bu obraz Amiriygacha ham mumtoz adabiyotimizning ilg'or vakillari ijodida xilma-xil ko'rinishlarda hayotiy go'zallik timsoli sifatida talqin etilgan. So'z san'atkorlari ma'shuqa go'zalligi talqinida hayot go'zalligini, ma'shuqaga bo'lgan muhabbat vositasida insonning hayotga bo'lgan muhabbatini ifodalaganlar.

Asar bosh qahramonlaridan bo'lgan ma'shuqa beqiyos go'zalligi bilan birga so'zga chechan, hozirjavob, aqlli qiz. U hayotga aql-zakovat va fahm-farosat bilan qaraydi. U oshiqning ishq sinovlariga bardoshini sinash maqsadida

Tamanno qil vale o'zungga loyiq,

Tomosho qil vale ko'zungga loyiq –

deydi. Ma'shuqa obrazining xarakteri, xususan, oshiqqa bo'lgan munosabati voqealar jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradi.

Shuni aytish kerakki, Amiriy o'z asarida ma'shuqa obrazini salaflardan farqli o'laroq faol obrazga aylantirgan. U voqealar davomida o'z xatti-harakatlari, fikr-mulohazalari, qarashlari bilan faol qatnashadi. Shuning uchun ham bu obrazda tavsifiy xarakterlar emas, ko'proq hayotiy, insoniy xarakter va fazilatlar o'z ifodasini topgan.

Asarda Oshiq, Ma'shuqa, Sabo obrazlaridan tashqari "Birov", "Hamroz", "Xoja" obrazlari ham mavjud. Ammo ular asarda biror aniq funksiyani bajarmaydilar. Shunday qilib, nomadagi g'oyaviy motivlarni ifodalashda asardagi obrazlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning epiklik xususiyatini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Mumtoz she'riyatda, xususan, noma janrida ham badiiy tasvir vositalari katta o'rin tutadi. Badiiy tasvir vositalari deyilganda, avvalo, she'riy san'atlar nazarda tutiladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda bu **ilmi badih** deb ham yuritiladi. She'riy san'atlar asar jozibasini ko'rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qilishi kerak. Noma janrida qalam tebratgan Xorazmiy, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Sayyid Ahmad singari so'z san'atkorlari o'z asarlarida irsolul masal, tashbeh, mubolag'a, tazod, tanosub, tarseh, kitobat, mubolag'a kabi badiiy

san'atlardan o'rinli foydalanganlar. Ular lirik obrazlar, xususan, ma'shuqa tasvirida, uning 'ortretini yaratishda xilma-xil o'xshatishlar, qiyoslashlar, laff va nashr usullari, jonlantirish va boshqa tasvir vositalarini ham san'atkorona qo'llaganlar.

Kishi birovdan jafo ko'rsa, odatda unga jafo bilan javob beradi, hech bo'lmaganda indamay uni tark etadi. Lekin oshiq ma'shuqaning jafosiga nisbatan o'ziga qilingan munosabatning ziddini – vafodorlikni ko'rsatadi. Bu bilan, birinchidan, o'zining vafosi oldidagi yorning jafosini bo'rttirsa, ikkinchidan, yor jafosi orqali o'zining vafosini tahkidlamoqda. Demak, **tazod**ni hosil qilayotgan so'zlar baytdagi ikki obraz – oshiq va ma'shuqaning xarakter xususiyatlarini yorqin aks ettirishga xizmat qilgan:

Qachonkim shod esang, g'amgina rahm et,

Agar sulton esang, miskina rahm et.

Tazod san'atiga yana bir go'zal misol:

Qaro meng ol yanoqingqa yaroshur,

Boshim doim ayoqinga yaroshur.

Karashma birla oshiq o'ltirursiz,

Siz o'lturgan kishi o'lgaymu hargiz.

Mumtoz she'riy namunalar orasida boshdan-oyoq bitta she'riy san'at asosiga qurilganlari ham uchraydi. Qarshilantirish asosida lirik qahramonning kechinmalari, lirik obrazning ruhiy holati yanada yorqinroq, yanada ta'sirchanroq ko'rinishga ega bo'ladi.

Tajnis san'ati ham mumtoz she'riyatimizda ko'p qo'llanadigan, ijodkorning mahorati, til boyliklarini egallash darajasi va hozirjavobligini belgilovchi badiiy san'atdir. Ayniqsa, tajnis san'ati asosida yaratiladigan, faqat turkiy she'riyatgagina xos bo'lgan tuyuq janridagi she'rlar o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi, badiiy tafakkuri rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

(qil – sochning qili, qil – qilmoq fehli)

...Oshar yeldin sening yelganda oting,

Quyosh yanglig' jahonni tutti oting.

(Ot – hayvon, ot – nom)

Agar desam seni Rustam yarorsen,

Qiliching birla saflarni yarorsen.

(Yarorsen – yaraysan, yarorsen – yorasan).

Muhabbatni tug'ar ming turli asror,

Ko'ngul asrorini jon birla asror.

(Asror – sirlar, asror – asraydi).

Tajnisni unga yaqin bo'lgan **iyhom** san'ati bilan birga tushuntirish yaxshi samara beradi. Chunki iychom ko'zga yaqqol tashlanmasa-da, u ham omonimlikka asoslanadigan san'atdir. Tajnisda omonimlikni tashkil qilayotgan so'zlar ishtirok etib, baravar ko'rinib tursa, iychomda ularning biri qo'llanib, ikkinchisi yashirin keladi. Uni to'ish, his qilish, she'rxonning badiiy didi, saviyasi va zukkoligiga ham bog'liq.

Iychom orqali ifodalanayotgan fikrlar bir-birini inkor etmasligi, aksincha, ular biri ikkinchisini to'ldirishi, hatto birgalikda yanada kengroq mazmunni ifodalashi mumkin.

Seni ko'rgan rux o'zindin yot bo'lur,

Ruxungni ko'rsa ming shah mot bo'lur.

(rux – yuz, rux – shaxmat ruxi)

Tajohuli orifona (bilib bilmaslikka olish) san'ati ham mumtoz she'riyatda keng qo'llaniladi. Bu san'atni anglab yetishimizda tilshunoslikda ritorik so'roq ga'lar bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarimiz yordamga keladi. "Men qaerdan bilay?", "SHunday emasmi?" singari ga' va so'z birikmalari zamiridagi javobi aniq tushunchalar tajohuli orif san'atiga yaqin turadi. Demak, ushbu badiiy san'atning tahrifi quyidagicha: " Tajohuli orif - badiiy matnda mantiqiy urg'u berish, tahkidlash maqsadida fikrni ritorik ga' shaklida qo'llash, bilib turib o'zini bilmaslikka solish san'atidir."

***Ayt, mendinkim ul miskin erur oh,
Qachon engay gadoning evina shoh.***

Talmeh san'ati lirik qahramonning o'z holatini yorqinroq ifodalash uchun tarixiy, afsonaviy shaxslar yoki badiiy obrazlarni "yordamga" chaqirishidir.

***Qamuq ko'rkluklar uzra podshosen,
Masih anfosliq, Yusufliqosen.***

Yoki:

***O'g'on Yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kimiyosin bizga berdi.
So'zung SHirin, o'zung Xisravdin afzun,
Bo'lur Layli sening husnunga Majnun.***

"Muhabbatnoma" muallifi yor vasfi va oshiq kechinmalari tasvirida, shuningdek, jonlantirish, tashxis, mubolag'a kabi usullardan, xilma-xil badiiy vositalardan mohirlik bilan foydalanadi, original obrazlar yaratadi, ayrim an'anaviy obrazlarga yangicha tus beradi.

"Latofatnoma" muallifi bo'lgan Xo'jandiy "Muhabbatnoma" va shoir Xorazmiy haqida quyidagilarni yozgan edi:

***Muhabbat jomidin ichsang sharobe,
"Muhabbatnoma"ga aysang javobe.***

***...Xo'jandiy so'zlaring Xorazmiy miskin
Eshitsa: "Balli!" – deb qilg'aydi tahsin.***

Yuqorida keltirilgan misol va namunalar Xorazmiyning "Muhabbatnoma" mazmuniga muvofiq badiiy shakl yarata olganini va turli xil usul hamda badiiy vositalardan foydalanib, asarning g'oyaviy-badiiy, falsafiy-estetik qimmatini oshirganini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, keyingi davrlar so'z san'atkorlari uchun o'ziga xos tajriba maktabi bo'lib xizmat qilgan.

X U L O S A

Noma, yuqori fasllarda qayd etilganidek, ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik hodisaga aylana borish jarayonida xilma-xil vazifani bajaruvchi shakl va mundarijaga ega bo'la bordi. Xat, maktub shaklining ommabopligi, shaxsiy tuyg'ularni ifodalashdagi o'ng'ayligi badiiy ijod ahlining e'tiborini tortdi. So'z san'atkorlari maktub, noma shaklida she'rlar, dostonlar, hikoyalar, qissalar yoza boshlaganlar. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida maktub "insho" shaklida birinchi marta Alisher Navoiyning ijodidan mustahkam o'rin oldi. Ulug' shoir va mutafakkir turli yillarda turli munosabatlar bilan har kimlarga yozgan xatlarini to'lab, "Munshaot" nomi bilan kitob holiga keltirdi. Navoiy an'analariga qiziqish va ehtirom bilan munosabatda bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham hayotidagi eng muhim, tarbiyaviy ahamiyatga ega, tarixiy hodisalarni o'zida aks ettiruvchi maktublarini "kitobat" nomi bilan "Boburnoma"ga kiritdi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarida, xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlari qahramonlari tilidan yaratilgan maktub-nomalar ham asar tarkibidan o'rin oldi. Bu maktub-nomalar obrazlarning ma'naviy olami, xarakter xususiyatlari, orzu-umidlari yanada yorqinroq aks etishiga xizmat qildirildi.

Maktub, xatlar sof adabiy hodisa sifatida mumtoz adabiyotimizga kirib kelishi noma janrining shakllanishiga turtki berdi. Natijada badiiy adabiyotimiz xazinasini Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan boshlab turli yetuk adabiy asarlar bilan boyidi. Noma xususiy hodisalikdan ijtimoiy-ommaboplik darajasiga ko'tarildi. Unda yorqin obrazlar, estetik ta'sirchan hodisalar, falsafiy g'oyalar o'z aksini to'a boshladi. Chunki, milliy o'zlikni tasdiq va namoyon etuvchi qudratli vositalardan biri – "...millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oyinai

hayoti uning tili va adabiyotidir”.¹⁴ Insonning borliqni go’zallik o’lchovlari asosida idrok etib, tom ma’nodagi odamiylik siyratini kasb etishida so’z san’atining o’z o’rni va ahamiyati bor. Adabiyot ana shu jarayonni ongli tarzda muayyan maqsadga yo’naltiradi, kitobxonlarda yuksak badiiy didni shakllantiradi. Falsafiy qarashlarga boy asarlarni tushunish, ular asosida mushohada yuritish malakasini hosil qiladi. Shu tariqa badiiy adabiyot kishi hayotining ajralmas bo’lagi, kundalik hayoti mazmuniga aylana boradi. Shuning uchun ham mumtoz adabiyot namunalari ma’naviyatimizni o’stirishda, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda beqiyos imkoniyatlarga ega bo’lgan ma’naviy, madaniy merosdir.

XIV asr o’rtalari va XV asrning birinchi yarmida o’zbek adabiyotida alohida mustaqil ishq-muhabbat mavzuidagi janr sifatida shakllangan va rivojlangan noma o’z taraqqiyot kurtaklarini qadimgi og’zaki va yozma adabiyotdan boshlagan. Bu o’rinda qadimgi lirik qo’shiqlardagi vasf-noma izlaridan boshlab “Alpomish” dostonigacha, yozma adabiyotda esa “Qutadg’u bilig” asarigacha eslash joiz bo’ladi. Shu ma’noda Zarafshon vodiysida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida ayol kishining qabr toshiga o’yib ishlangan yozuvlardagi vasf motivlarini eslash bu masalaning ildizlarini yanada qadimiy davrlarga olib boradi.

Alisher Navoiy o’zining “Farhod va Shirin” dostonini yozar ekan, undagi Farhodning Shiringa, Shirinning Farhodga yozgan maktub-nomalarini yaratishda, Mehinbonu saroyidagi 10 ta olima, shoirlarni tavsif etishda boshqa manbalar qatorida Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asarlaridan ham ilhomlangani tabiiy. Bu esa nomalar o’zbek epik poeziyasi taraqqiyotida muhim bir bosqich bo’lganligi, epik poeziya taraqqiyotiga sezilarli hissa bo’lib qo’shilganini ko’rsatadi.

Mumtoz shoirlarimizning noma janridagi asarlari, ular tarkibidagi ruboiy hamda qit’alari, dunyoviy ishq-muhabbat mavzusi bilan bir qatorda diniy ahkomlar, ilohiy ehtiqod masalalarini ham qamrab olgan bo’lsa-da, ularda odob-

¹⁴ Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: “Шарқ”. 1999. 23-бет.

axloqqa oid muhim pand-nasihatlar, kundalik turmush uchun zarur bo'lgan yo'riqnomalar ham targ'ib etiladi. Shuni alohida tahkidlash kerakki, kichik lirik janrlarda muxtasar holda olg'a surilgan hayotbaxsh dahvat va g'oyalar epik ko'lamda yanada chuqurroq va batafsilroq istifoda etilgan. Demak, mumtoz nasriy asarlar, nomalar, dostonlarni o'rganishda ham lirik asarlarni o'rganish jarayonida orttirilgan bilim va ko'nikmalar, amaliyot va tajribalar qo'l keladi. Bu asarlarda kishilar o'rtasidagi o'zaro birodarlik, mehr-muhabbat, rahm-shafqat, saxovat va oliyhimmatlik tushunchalari badiiy tarannum etiladi.

Maktub-nomalarning umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyligi mualliflarni o'z davri an'alaridan yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, Xorazmiy ko'plab salafлари, zamondoshlaridan farqli ravishda, lirik obrazlarning tashqi 'ortretiga oro beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, shoir yaratgan lirik obrazlar muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar va she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylandilar.

Mumtoz shoirlarimizning noma janridagi asarlari, ular tarkibidagi ruboiy hamda qit'alari, dunyoviy ishq-muhabbat mavzusi bilan bir qatorda diniy ahkomlar, ilohiy ehtiqod masalalarini ham qamrab olgan bo'lsa-da, ularda odob-axloqqa oid muhim pand-nasihatlar, kundalik turmush uchun zarur bo'lgan yo'riqnomalar ham targ'ib etiladi. Shuni alohida tahkidlash kerakki, kichik lirik janrlarda muxtasar holda olg'a surilgan hayotbaxsh dahvat va g'oyalar epik ko'lamda yanada chuqurroq va batafsilroq istifoda etilgan.

Darhaqiqat, o'zbek dabiyoti tarixidagi birinchi noma davrlar o'tishi bilan kitobxonlar qalbidan tobora chuqurroq o'rin egallab bormoqda va o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirdi. Xo'jandiyning "Latofatnoma"si, Amiriyning "Dahnoma"si, Sayyid Ahmad ibn Mironshohning "Taashshuqnoma"si bevosita "Muhabbatnoma"ning samarali ta'siri bilan vujudga kelgan.

Nomalarning umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyligi mualliflarni o'z davri an'alaridan

yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, Xorazmiy ko'plab salaflari, zamondoshlaridan farqli ravishda, lirik obrazlarning tashqi 'ortretiga oro beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, shoir yaratgan lirik obrazlar muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar va she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylandilar.

Dissertatsiya ishimizga asosiy manba qilib olingan o'zbek adabiyotidagi nomachilik, ushbu nomalar tarkibidagi lirik janrlardan g'azal, ruboiy, qit'a, fard va boshqalar ham milliy mustaqilligimiz mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda, adabiy merosimizning nisbatan kam o'rganilgan qirralarini yoritishda o'ziga xos o'rin tutadi.

SLAYDLAR

Noma janrining asosiy xususiyatlari


1. Nomalar she'riy (ko'proq g'azal janrida) hamda nasriy (maktub, xat) shaklida bo'lishi mumkin;
2. Nomalarda quyidagi obrazlar bo'lishi mumkin: a) hikoyachi-muallif b) oshiq; v) ma'shuqa; g) vositachi – sabo, nomabar, qosid va b.
3. Nomalardagi badiiy-estetik g'oyalar, pand-o'gitlar, falsafiy qarashlar xususiylikdan umumiylikka ko'tarilgan bo'lishi lozim. (Aytaylik, SHirinning Farhodga nomasida Xisrav tomonidan keltirilayotgan zulm va zarar nafaqat o'ziga, balki xalqqa ham jabr bo'layotganligini qayd etadi, Boburning Humoyunga nomasida xalq bilan aloqani uzmaslik, savodxonlikka e'tibor masalalari qo'yiladi va hokazo).
4. Noma janri talablariga javob berishi uchun lirik kechinmalar ifodasidan tashqari muayyan ijtimoiy hodisalar bayoni ham liro-epik tarzda aksini topgan bo'lishi lozim.

Mahmud Qoshg'ariyning “Devon-u lug'otit turk” asarida har turli harakatlarda qo'llanuvchi afhal (fe'llar) shaklidagi so'zlar bo'limida xabar yetkazuvchi so'zini izohlaganda “Bu so'z maktub, noma ma'nosida ham qo'llanadi” deyilgan. Xuddi shu asarda keltirilgan bir she'riy to'rtlikda esa lirik qahramon Turkon xotun degan ayolga she'riy noma yo'llab, uning har bir xizmatiga tayyor ekanligi xabarini yuboradi.

Noma atamasi qadimiy xalq dostonlarida ham uchraydi. Bunday dostonlardan biri “Alpomish” bo’lib, unda ona yurtidan uzoqda bo’lgan Barchin o’zining nochor ahvolda qolganligini bayon etib, sevgilisi Hakimbek kelib qutqarishini iltijo etib maktub-noma yozgani va bu nomani o’nta navkardan yuborgani bayon etilgan.


Maktub-nomalar alohida janr sifatida ham shakllandi. O’zbek nomachiligining eng taraqqiy etgan davri XIV – XV asrlarga to’g’ri keladi. Bu davrda Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si, Xo’jandiyning “Latofatnoma”si, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” va Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” kabi asarlari yuzaga keldi. Bu asarlarning muqoyasali tahlili o’zbek nomachiligining tarixi, shakllanish jarayoni, o’ziga xos janr xususiyatlari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

1-ilova. Nomaning taraqqiyot bosqichlari




Noma ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik hodisaga aylana borish jarayonida xilma-xil vazifani bajaruvchi shakl va mundarijaga ega bo'la borgan. Natijada tarixchi olimlar o'rtasidagi yozishmalar tarixiy xat, podshohlar o'rtasidagi yozishmalar di'lomatik maktub, yozuvchilar o'rtasidagi yozishmalar adabiy noma shakllarini ola boshlagan.

2-ilova. Noma janrining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar.




Sharq adabiyoti tarixida “Shohnoma”, “Qobusnoma”, “Iskandarnoma”, “Boburnoma”, “Shayboniynoma”, “Sayohatnoma” kabi asarlarni yaxshi bilamiz. “Noma” atamasi bilan qo’shilib kelgan bu asarlar bir holatda biror tarixiy yoki afsonaviy shaxsning sarguzashtlaridan iborat bo’lsa, ikkinchi bir o’rinda ibratli hikoyatlardan tashkil topadi. “Sayohatnoma”larning mundarijasi esa uning atamasidan ham anglashilib turadi. Sharq adabiyoti, jumladan, o’zbek adabiyoti tarixida noma atamasi bilan keladigan asarlarning yana bir turi mavjud. Masalan, “Muhabbatnoma” yoki “Dahnoma” kabi. Bu asarlar muhabbat mavzuidagi lirik nomalardan iborat alohida janrni tashkil etadi.

3-ilova. Noma janrida yaratilgan asarlarning yetakchi g'oyalari



4-ilova. “Muhabbatnoma” ta’sirida yaratilgan asarlar



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”. 2007.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: “Sharq”.1998.
3. Alisher Navoiy. Nazm-ul javohir. Asarlar. 15-jild. 1968.
4. Alisher Navoiy. Munshaot. Asarlar. 13-jild. T.: 1968.
5. Aziz Qayumov. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ashhorlar. T.: 2011.
6. Ahmedova Sh. Maktubot va adabiy tanqid. T.: “Fan” 2005
7. Akromov B. Fasohat mulkining sohibqironi. T.: “Fan”, 1991.
8. Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. T.: “Fan” 2001.
9. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari, T.: “Fan”, 1993.
10. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. T.: Adolat. 2006.
11. Boltaboyev H. Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. T.: 2013
12. Boynazarov F. Sirli tilsimlar talqini. (A.Navoiy tavalludining 550 yilligiga) T.: Bilim jamiyati, 1991.
13. Bobur. Boburnoma. T.: “Yulduzcha” 1989.
14. Sharq mumtoz poetikasi. (H. Boltaboyev talqinida). T.: 2008.
15. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: “O'zbekiston. 1993
16. Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. T.: 1974.
17. Vohidov R. Alisher Navoiyning ijod maktabi. Buxoro, 1994
18. Vohidov R. Navoiyning nomi barhayot. T.: “Fan”, 1991.
19. Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar. T.: “Fan”. 2007
20. Jamol Kamol. Lirika. T.: “Fan” 1986.
21. Jamolova M. O'zbek adabiyotida noma janri. T.: 1992
22. Jo'rayev H. Lirikada an'anaviylik va o'ziga xoslik. T.: 2004.
23. Jo'raboyev O. Mumtoz adabiyotda mug'anniynoma. T.: 2016.
24. Karomatov H. Qurhon va o'zbek adabiyoti. T.: “Fan” 1993.
25. Karimova F. O'zbek adabiyotida debocha. T.: “Mumtoz so'z”. 2008.

26. Komilov N. Tasavvuf. (1-kitob). T.: 1996.
27. Muhiddinov M. Ikki olam yog'dusi. T.: 1991
28. Nosirov O. va boshqalar. O'zbek klassik she'riyati janrlari. T.: 1978
29. Navoiy. G'azallar. Sharhlar. T.: "Kamalak", 1991.
30. Ishoqov Yo. Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma" asari. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-tom. T.: 1976.
31. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. T.: 1976
32. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: 2006
33. Sharq mumtoz poetikasi. (H. Boltaboyev talqinida). T.: 2008.
34. Shukurov N. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: 1982.
35. Farididdin Attor. Tazkirat-ul avliyo. T.: 1997.
36. Xorazmiy. Muhabbatnoma. Muborak maktublar to'lam. T.: 1987
37. Qayumov A. Alisher Navoiy. T.: "Kamalak", 1991.
38. Qayumov A. Nodir sahifalar. (Navoiyning kam o'rganilgan bahzi asarlari to'g'risida) T.: "Fan", 1991.
39. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. T.: 2009.
40. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T.: 2008.
41. Qur'onov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: 2010
42. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. T.: 1993.
43. Haqqul I. Abadiyat farzandlari. T.: 1990.
44. Haqqulov M. Zanjirband sher qoshida, T.: 1989.
45. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. T.: 1991.